

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI YO‘NALISHI
ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITISH METODIKASI KAFEDRASI
BITIRUVCHISI

Toirova Vazira Sheraliyevnaning

Umumta‘lim maktab va litsey adabiyot darslarida Ogahiy hayoti va
ijodining o‘rganilishi
mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: f.f.n.R.Ruzmanova

Samarqand-2017

MUNDARIJA:

Kirish.

I bob. Muhammad Rizo Ogahiy hayoti va adabiy merosi.

1.1. Ogahiy hayoti va ijodiy faoliyati.

1.2. Ogahiy lirikasi va uning mavzu ko'lam

II bob. Ogahiy hayoti va ijodini o'rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

2.1. Ogahiy hayoti va ijodining umumta'lim maktab va akademik litsey darsliklarida o'rganilishi.

2.2. Ogahiy hayoti va ijodini o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Ko‘pasrlilik tarixga ega madaniy va adabiy merosimizga munosabat istiqlool tufayli tubdan o‘zgardi. Xalqimiz tarixi, dini va adabiyoti, ma‘naviy qadriyatiga e‘tibor kuchayib, ularning mavqeyini tiklash, xalqqa asl holida yetkazish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu esa boshqa sohalar qatori adabiyotshunoslikda ham teran ilmiy izlanishlar olib borish, adabiy merosga yangicha nuqtayi nazardan yondashish zaruratini ko‘rsatdi. O‘tmishda yashab ijod etgan shoir va adiblarning merosini xolisona o‘rganish va munosib baholash har qachongidan dolzarb vazifaga aylandi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq adabiyot ahliga har tomonlama yordam ko‘rsatish, ijod erkinligini ta‘minlash, ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yoritib kelingan madaniy merosni tiklash, tom ma‘noda tahlil va talqin etish borasida davlat siyosati darajasida samarali ishlarga e‘tibor qaratdi. «Agar biz O‘zbekistonni dunyoga tarannum etmoqchi bo‘lsak, uning qadimiy tarixi vayorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida abadiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarning ijodini chuqur o‘rganish, buyuk shoir, buyuk ijodkorlarni tayyorlashimiz kerak. Nega deganda, ulug‘adib Cho‘lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi».¹

Milliy istiqlool g‘oyasida asosli ko‘rsatilib o‘tilganidek, bizning o‘tmish merosimiz hamma davrda inson tarbiyasida muhim o‘rin tutgan. Binobarin, adabiyot go‘zallikdir. Bu go‘zallikning tarbiyadagi o‘rni beqiyos.

XIX asr Xorazm adabiy muhiti xalqimiz madaniy merosining ajralmas bir qismini tashkil etadi. Bu adabiy-ijodiy muhit o‘nlab iste’dod sohiblarini tarbiyalab kamolga yetkazgan. Ulardan biri Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) bo‘lib, u o‘z zamonining mashhur shoiri, muarrix (tarixchisi) va tarjimoni, davlat arbobi bo‘lgan. Uning shoirlik, tarjimonlik, muarrixlik faoliyatini tadqiq etish va asarlarini xalqqa yetkazish, ulardagi joziba, badiiylik qirralarini ochish, tahlil va

¹ Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma‘naviyat, 2008. 139-bet.

talqin etish davr talabidirki, bu ayni paytda malakaviy bitiruv ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan.

Ogahiy adabiy merosi mazmun, badiiy jihatdan yuksak mavqega ega poetik asarlar bo'lib, ular milliy mafkuramizni mustahkamlash, yosh avlodni barkamol, ma'naviy jihatdan go'zal insonlar qilib tarbiyalashda katta ma'rifiy-estetik ahamiyatga egadir. Shu bois uning hayot yo'li, ijodiy faoliyati, asarlarini, jumladan, she'riyati badiiyatini umumta'lim makatblari va akademik litsey darsliklari asosida tadqiq etishni oldimizga maqsad qilib oldik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Ogahiy hayoti va ijodiy faoliyati umumta'lim maktab va akademik litsey darsliklarida qay darajada yoritib berilganligini tadqiq etish hamda bu orqali shoirning ijodiy biografiyasini ochib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- Xorazm adabiy muhiti va unda Ogahiy ijodiy merosining o'rnini anqilash;
- Ogahiy hayoti va ijodining o'rganilganlik darajasini aniqlash;
- Umumta'lim maktab va akademik litsey darsliklarida Ogahiy ijodining qaysi qirralari yoritilganligini o'rganish;
- Ogahiy hayoti va ijodiy faoliyatining yangi qirralarini ochib berish;
- to'plangan va o'rganilgan ma'lumotlar asosida Ogahiy siymosini yangicha kashf etish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Umumta'lim maktab va akademik litsey darsliklarida Ogahiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni o'rganish hamda tahlil etish bitiruv malakaviy ishimizning predmetini tashkil etadi. Biz mazkur ishda darsliklarda shoir hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarning qay darajada bayon

qilinganligi, Ogahiy lirikasini o'rganishning samarali usullarini topishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Muhammad Rizo Ogahiy ijodi o'zbek adabiyotshunosligida ancha keng o'rganilgan. Asarlari qayta-qayta nashr etilgan. Jumladan, 1958-1960-yillarda "Tanlangan asarlar"i, 1960-yilda "Ta'viz ul-oshiqin" devoni, 1970-yillarda she'rlari, tarixiy, tarjima asarlaridan namunalar jamlangan 6 jildlik "Asarlar" to'plami chop etildi. Mustaqillik yillarida ham Ogahiy lirikasi "Sarv qomat ko'rmisham" nomida (2007), tarixiy asarlaridan "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i") nashri amalga oshirildi.

Ogahiy haqida o'zining tarixiy asarlari, Bayoniy, Komil Xorazmiy, Feruz asarlarida, bir qancha tazkiralarda ma'lumotlar uchraydi.²

Ushbu manbalarni kuzatib, Ogahiy Xiva adabiy muhitida yetakchi vazifani ado etgan, degan xulosaga kelish mumkin. Bu hududda yashagan bir necha avlod Ogahiyning ustozlari sifatida ulug'laydi. Shoir Komil Xorazmiy unga juda yuqori baho beradi. Ogahiyning fazl-u donishda yagonaligi, so'zining qadri balandligi, ishqning tilsimlaridan ogoh ijodkorligini quyidagicha e'tirof etadi:

Ulki ogohlarning ogohidur,
Fahm-u donish sipehrining mohidur.
So'zi ortiqdur guhardin ham,
Fazl-u donishda olam ichra alam.
Sozni har necha qilsa bozori,
Bordur olamda bir xaridori.³

Shu adabiy muhit rahnamosi Muhammad Rahim II – Feruz Ogahiyning o'ziga ustoz deb oshkora e'lon etadi. Faqat ijodda emas, balki davlatni boshqarishda ham uning ma'naviy madadiga hamisha mushtoqlik sezadi. Buni biz quyidagi bayt orqali ham sezishimiz mumkin:

² Qarang: Баёний Мухаммад Юсуф. Шажараи Хоразмшоҳий. -Тошкент, 1994. -104 б.; Лаффасий. Ф. Гуломномадаги Адабиёт ва санъат наشريети, 1994; Хивашоир ва ёзувчиларининг таржимаи ҳоллари. -Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1944; Қаюмов П. Тазкираи Қайюмий. -Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1998, 1-дафтар.

³ Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. (XVI-XIX аср I ярми) -Тошкент, Фан, 2006. 216-бет.

Komil ersam nazm aro feruzdek ermas ajab,

Ogahiydur she'r mashq aylarda ustozim mening.⁴

Ogahiy adabiy merosi mashhur sharqshunos olimlardan Bartold, Samaylovich, Yakubovskiy, shuningdek, Y. G'ulomov, Q.Munirov kabilarning tarixnavislikka, V.Zohidov, V.Abdullayev, G'.Karimov, S.Dolimov, R.Majidiy, G.G'anixo'jayev, B.Valixo'jayev, A.Abdug'afurov, R.Orzibekov, N.Jumaxo'jayev, I.Adizova kabilarning adabiyotshunoslikka, G'aybulla as-Salom, J.Sharipov, N.Komilovlarning tarjimashunoslikka oid asarlarida tadqiq etildi.⁵

Adabiyotshunos G'.G'anixo'jayev "Ta'viz ul-oshiqin" devonining tanqidiy matnini tayyorladi. A.Abdug'afurov va N.Jumaxo'jayevlar Ogahiyning shoir, tarjimon, muarrix sifatidagi faoliyatini chuqurroq o'rganishga bag'ishlangan ilmiy asarlar e'lon qildi.

Shuningdek, Ogahiy hayoti va ijodiga kichik tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshida tashkil etilgan "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida ham chop etib kelinmoqda. Jumladan, mazkur jurnalda shoir ijodini o'rganish yuzasidan qator yillar davomida turkum maqolalar berilgan: A.Ahmedovning "Muhammad Rizo Ogahiyning forsiy merosi"⁶, A. Jo'raxonovning "Ogahiy lirikasida kishilarni yaxshilikka undash g'oyalari"⁷, A.Pirimqulovning "Ogahiyning ishqiy masnaviylari"⁸, A.Jo'raxonovning "G'oya ifodasining bir usuli"⁹, A.Pirimqulovning "Topar saltanat necha ishdin kamol..."¹⁰,

⁴Yuqoridagiasar,216-bet.

⁵Qarang:Zohidov B.Ўзбек адабиёти тарихидан. –Тошкент,1961, 132-170-бетлар; Муниров Қ. Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. –Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1960; Маждий Р. Огаҳий лирикаси. –Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1963; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент, Ўқитувчи,1980, 316-345-бетлар; Орзобеков Р.ХІХ асрнинг биринчи ярми ўзбек адабиёти. –Самарқанд, СамДУ нашри, 2001; Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. –Тошкент, Фан, 2006.

⁶Ahmedov A. Muhammad Rizo Ogahiyning forsiy merosi.// O'TA, 1985, № 1, 46-50-betlar.

⁷Jo'raxonov A. Ogahiy lirikasida kishilarni yaxshilikka undash g'oyalari.// O'TA, 1996, № 5, 42-44-betlar.

⁸Pirimqulov A. Ogahiyning ishqiy masnaviylari.// O'TA, 1996, № 6, 35-37-betlar.

⁹Jo'raxonov A. G'oya ifodasining bir usuli.// O'TA, 1997, № 3, 48-50-betlar.

¹⁰ Pirimqulov A. Topar saltanat necha ishdin kamol... // O'TA, 1997, № 6, 38-39-betlar.

I.Haqqulovning “Ogahiy ijodida ijtimoiy-siyosiy ma’nolar”¹¹, G.Xolliyevaning “Ogahiy tuzgan “Bayozi mutafarriqa” majmuasi va undagi ilk taxmislar haqida”¹², M.Matyoqubovanning “Ogahiyning tarixiy asarlaridagi kichik she’riy janrlar”¹³, A.Jo’raxonovning “Ogahiy badiiyatining noyob qirralari”¹⁴, A.Abdug’afurovning “Muhammad Rizo Ogahiy”¹⁵, R.Yo’ldoshevning “Ogahiy she’rlari lirikasi bo’yicha kuzatishlar”¹⁶, I.Ismoilovning “Ogahiyning forsiy she’rlarida ko’z timsoli”¹⁷, S.Sayfullonhning “Ta’viz ul-oshiqin” devoni nashrlari haqida”¹⁸, D.G’oyipovning “Ogahiy she’riyatida rind timsoli”¹⁹ kabilar shular sirasidandir. Bundan tashqari, R.Jumaniyozovning magistr akademik darajasini olish uchun “Ogahiyning lirik qahramon yaratish mahorati” mavzusidagi dissertatsiyasi ham Ogahiy ijodini o’rganishda muhim qo’llanmalardan biridir.

Ogahiy tarjimon sifatida to’qqizta badiiy, oltita tarixiy, to’rtta axloqiy, axloqiy-falsafiy xarakterdagi asarlarni turkiy tilga o’girgan. Ogahiy ijodining tarjimachilik bilan bog’liq mashaqqatli jihatlari tarjimashunos, tasavvufshunos olim N.Komilovning “Bu qadim san’at” monografiyasida ancha keng tahlil etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining obykti. Mazkur ishimizda umumta’lim maktab va akademik litsey darsliklaridagi Ogahiy hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarni obyekt qilib oldik.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi va ilmiy metodi. O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning milliy istiqlol mafkurasini va adabiy-madaniy meros hamda ma’naviy qadriyatlarni o’rganishga oid asarlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning

¹¹ Haqqulov I. Ogahiy ijodida ijtimoiy-siyosiy ma’nolar.// O’TA, 1999, №5, 3-8-betlar.

¹² Xolliyeva G. Ogahiy tuzgan “Bayozi mutafarriqa” majmuasi va undagi ilk taxmislar haqida.// O’TA, 1999, №6, 57-59-betlar.

¹³ Matyoqubova M. Ogahiyning tarixiy asarlaridagi kichik she’riy janrlar.// O’TA, 1999, №6, 42-bet.

¹⁴ Jo’raxonov A. Ogahiy badiiyatining noyob qirralari.// O’TA, 1999, №6, 43-44-betlar.

¹⁵ Abdug’afurov A. Muhammad Rizo Ogahiy.// O’TA, 1999, №2, 3-10-betlar.

¹⁶ Yo’ldoshev R. Ogahiy she’rlari lirikasi bo’yicha kuzatishlar.// O’TA, 2007, №2, 72-76-betlar.

¹⁷ Ismoilov I. Ogahiyning forsiy she’rlarida ko’z timsoli.// O’TA, 2008, №2, 49-51-betlar.

¹⁸ Sayfullonh S. Ta’viz ul-oshiqin” devoni nashrlari haqida.// O’TA, 2010, №2, 10-16-betlar.

¹⁹ G’oyipov D. Ogahiy she’riyatida rind timsoli.// O’TA, 2013, №2, 65-66-betlar.

maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Mazkur malakaviy bitiruv ishi milliy istiqlol g'oyasi talablari asosida Ogahiy hayoti va ijodi, lirikasining badiiyati, xususan, uni o'rganishning samarali usullarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Shoir hayoti va ijodini o'rganishning samarali usullarini topish undagi yangi-yangi g'oyaviy mazmunlarni ochib beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Har bir bob fasllarga bo'linadi.

Kirish

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” asarida: “Biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma’naviy, axloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog‘lom bo‘lishi uchun doimo qayg‘urishimiz, kurashmog‘imiz zarur”, - deya ta’kidlagan edi.

Asrlar osha omon qolib, bizga yetib kelgan milliy qadryatlarimiz, ma’naviy va ma’rifiy madaniyatimiz, ilm–ma’rifat, shuningdek, pedagogika fani mustaqillik sharofati ila yangidan rivoj topa boshladi.

Ma’lumki, har bir mustaqil davlatning istiqboli fan–texnika, ilm–maorif taraqqiyoti hamda barkamol milliy kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazish bilan bog‘liqdir. Shu bois ham mustaqil davlatimiz ilm–fan hamda maorif rivojida salohiyatli milliy kadrlar yetishtirishga jiddiy e’tibor bermoqda.²⁰

Shaxsni barkamol bo‘lib yetishishiga, eng muhimi, uning ma’naviy dunyosini boyishiga sabab bo‘ladigan omillardan biri–bu badiiy adabiyotdir. Aslini olganda o‘zbek milliy adabiyotimizning rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan, uni jahon miqyosida san’at darajasiga ko‘targan buyuk siymolardan biri Ogahiy bo‘lib, bu buyuk shoirning noyob asarlari, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-didaktik hamda ishqiy mavzuda yozilgan g‘azallari asrlar osha bashariyatning bebaho durdonasi, ma’naviy–ma’rifiy, axloqiy–estetik mulkiga aylandi. Ana shunday so‘z san’atkorining noyob durdonalarini o‘rganish, ayniqsa, Ogahiy siymosini o‘quvchilarga yetkazish ko‘p jihatdan o‘qituvchining ilmiy–nazariy bilimi, dars berish san’ati, aniqrog‘i, shoir g‘azallari, uning mavzu ko‘lami va ularda aks ettirilgan lirik qahramonlar, ularning ruhiy kechinmalari, his-tuyg‘ularini tahlil qilishga bog‘liq. Bu jihatdan umumta’lim maktablari va akademik litsey o‘qituvchilari adabiyot kursi bo‘yicha darslikka ega bo‘lganliklari holda, Ogahiy asarlarini o‘rganish, tahlil qilish, ularni o‘quvchilar ongiga yetkazishga oid adabiy–tanqidiy va metodik qo‘llanmalarga ega emas, bunga ehtiyoj sezadilar... Bu narsa adabiyot o‘qitish metodikasi sohasida, ayniqsa, Ogahiy ijodini o‘rganishda ilmiy metodik, aniqrog‘i, tadqiqot ishlarini olib borish

²⁰Зуннунов А. Педагогика тарихи. - Т.: Шарқ, 2004, 3-4-б.

va dars samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy metodik qo'llanmalarni yaratishni taqozo etadi.

Ogahiy xalqimiz tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan serqirra iste'dod sohibidir. U ijodining ko'lami, she'riyatining ko'rkamligi va badiiy salmog'i bilan ajralib turuvchi sermahsul va serqirra shoir hisoblanadi. Ayni paytda xalqimiz o'tmishini haqqoniy aks ettirgan bir necha nodir asarlari bilan tarix ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan olim sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, u juda ko'plab tarixiy va badiiy asarlarni fors tilidan ona tilimizga o'girib, ularni xalqimizning ma'naviy merosiga aylantirishdagi xizmatlari tahsinga loyiqdir.

Xorazm adabiy muhitida juda katta o'rin tutgan, nafaqat Xorazmda, umuman, o'zbek mumtoz adabiyotida ijodiy merosi ko'lami va badiiy mahorati jihatdan A.Navoiydan keyin ikkinchi o'rinda turadigan Ogahiy asarlarini o'rganish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilganligi barchaga ma'lum. Shoirning hayoti va ijodi haqida oliy o'quv yurtlari uchun nashrdan chiqqan darsliklarda, atdabiyotimiz tarixiga bag'ishlangan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi Til va adabiyot instituti tomonidan chop etilgan «O'zbek adabiyoti tarixi»da, shuningdek, professor N.Komilov, Botirxon Valixo'jaev, Abdurashid Abdug'afurov, Nusratulla Jumaxo'ja, Ibrohim Haqqulov kabi olimlarning dissertatsiya ishlari va shu asosda e'lon qilgan maqolalarida Ogahiy ijodi va hayotining turli jihatlar haqida qimmatli fikr-mulohazalar o'rta tashlanadi, muayyan xulosalar chiqariladi. Biroq bu izlanishlar Ogahiy siymosi, ijodiy merosi oldida juda oz sanaladi. Chunki Ogahiy adabiy merosi juda katta ko'lamli, g'oyaviy-badiiy jihatdan e'tiborga loyiqdir. Shuning uchun ham 1998-yilda I.A.Karimov rahbarligidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi buyuk shoir tavalludining 190 yilligini mamlakat miqyosida nishonlash to'g'risida tarixiy qaror qabul qildi. Oradan o'n yil o'tib 2009-yilda Ogahiy tavalludining ikki yuz yilligini nishonlash to'g'risida ham qaror qabul qilindi. Ushbu qaror asosida Ogahiy yubileyi respublikamizdagi barcha oliy va o'rta maxsus o'quv maskanlari,

maktablar va madaniy muassasalar, mehnat jamoalarida juda katta tantana sifatida nishonlandi.

1999-yil dekabr oyida Ogahiy tavalludining 190 yilligi keng nishonlandi. Uning buyukligi, ma'naviyatimiz uchun qoldirgan o'lmas merosi to'laligicha namoyon etildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning Ogahiy yubileyi tantanalari ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida Ogahiy adabiy va ilmiy merosining nihoyatda katta ahamiyati ko'rsatib o'tildi. Shu tabrik matnini aynan keltirish maqsadga muvofiqdir.

Muhtaram do'stlar!

Aziz vatandoshlar!

Tinchlik va xotirjamlik, o'zaro hurmat va hamjihatlik hukmron bo'lgan mustaqil yurtimizda bugun yana bir tanata. O'zbek mumtoz adabiyotining zabardast namoyondasi-betakror shoir, yirik tarjimon, salohiyatli tarixnavis olim va yirik davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy tavallud topganiga 190 yil to'ldi.

Qadim Xorazm insoniyatning aqliy va ma'naviy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan allomalar yurtidir. Bu qutlug' zaminda bashariyatni ezgulikka chorlagan "Avesto"dek muqaddas kitob yaratilgan, o'z davridagi jahon ilm-u fanining markazi hisoblangan Ma'mun akademiyasi faoliyat ko'rsatgan. Ilmiy va badiiy tafakkuri qudrati bilan dunyoning ne-ne ahli donishlarini hayratga solgan o'nlab xorazmiylar xalqimizning buyuk iste'dodi va iqtidorini olamga tanitganlar. Axir, bundan iftixor qilmay, g'ururlanmay boladimi?

Bugungi bayram ham ayni shu iftixor va g'ururning yana bir namoyishidir. Bu bayram faqat adabiyot shodiyonasigina emas, balki xalqimizning boy va qadimiy madaniyati, fani va san'atiga bo'lgan azaliy ehtirom va e'tiborning uzviy davomi hamdir. Zero, ko'p qirrali iste'dod sohibi Ogahiy millatimiz timsoli sanalmish ulug' Alisher Navoiy singari insonning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq deyarli barcha sohalarda samarali ijod qildi. U ulkan she'riy devonni, o'nlab yirik badiiy, tarixiy va falsafiy asarlar tarjimasini, ko'plab ilmiy-tarixiy risolalarni biz-avlodlariga meros qilib qoldirdi. Agar Ogahiyning bosh miroblik ilmi va

tadbirkorligi Xorazm zaminini suv bilan yashnatgan bo'lsa, uning badiiy tafakkuri va ko'ngil ziyosi millatimiz qalbini so'nmas qadriyatlar bilan nurafshon etdi.

Biz bugun donishmand ajdodlarimizdan tinimsiz saboq olishimiz naqadar zarur. Shu jihatdan Ogahiyning mana bu baytiga alohida e'tibor berishingizni xohlardim:

Bu gulshan sayrin etsang, bosma gustahona tufroqni

Ki, har gom ostida bir paykari ozoda madfundir.

Bu misralarda naqadar teran falsafiy haqiqat aks etgan. Darhaqiqat, ona Vatanimiz tuprog'i mo'tabar ajdodlarimizning jismi jonidan yaralgandir. Uni e'zozlash, himoya qilish, turli nopok kimsalar oyog'i ostida toptatmaslik barcha avlodlarning muqaddas burchi, muhtaram do'stlar!

Xalqning xalq, millatning millat bo'lib shakllanishida tarixiy-madaniy xotira, buyuk ajdodlar yodining ahamiyati beqiyosdir. Har bir vatandoshimiz qalbida so'nmas g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otuvchi mana shunday bobolarimizdan biri mutafakkir adib Ogahiyning muborak to'yi barchangizga qutlug' bo'lsin!

I.Karimov

“Xalq so'zi”, 1999, 18-dekabr.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning yuqoridagi so'zlaridan buyuk shoir, iste'dodli tarjimon, zabardast tarixchi Ogahiy o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'rin egallaganini yana bir bor guvohi bo'lishimiz mumkin.

Mavzumiz Ogahiy hayoti va ijodining umumta'lim maktablari va akademik litsey darsliklarida o'rganish usullariga bag'ishlanganligi sababli, shunga oid darsliklar, metodik qo'llanmalar, ilmiy axborot namunalarini o'rgangan holda malakaviy bitirish ishimizga ilg'or maktab tajribalari va shaxsiy kuzatishlarimni umumlashtirishni nazarda tutdim. Shu maqsadda, adabiyot metodikasiga oid o'tgan asrning 80-2000-yillar va mustaqillik davrida yaratilgan darsliklar, metodik qo'llanma va ilmiy maqolalar, axborot namunalarini o'rganish, ularni tahlil etish, munosabat bildirish nazarda tutildi. Zotan, adabiyot metodikasi fani umumta'lim

maktablarida badiiy adabiyotni o'qitishning mezonini belgilaydi, dars samaradorligini oshirishning turli usullari haqida bahs yuritadi, tavsiyalar beradi, eng muhimi, o'quvchini badiiy adabiyot vositasida san'at olamiga olib kirishning usullarini belgilaydi.

Biz o'z malakaviy bitiruv ishimizda shoir asarlarining xususiyatlariga diqqat qaratishni lozim topdik. Negaki, ayni kunda umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida mumtoz adabiyotimizning poetikasiga, ayniqsa, badiiy san'atlar va qofiya tizimiga, bir so'z bilan aytganda, asarning badiiyligini ta'minlaydigan shakliy xususiyatlarga ko'proq diqqat qaratilmoqda. Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun o'tkaziladigan test sinovlarida ham mumtoz she'riyatimizning ushbu jihatlari bilan bog'liq bo'lgan savol-u javoblar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ishimizni tayyorlashda Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov rahbarligi ostida olib borilgan milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari, taniqli adabiyotshunos olimlar G'.Karimov, A.Xayitmetov, A. Abdug'afurov, N.Komilov, T.Boboyev, A.Hojiahmedov, S.Ro'zimboyev, Nusratulla Jumaxo'jayev, Ibrohim Haqqul, Botirxon Valixo'jayev kabilarning mumtoz adabiyot masalalari bo'yicha yaratilgan asarlarini ilmiy asos sifatida foydalandik. Adabiy manba sifatida esa Toshkentdagi G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti tomonidan 1971-1974-yillar davomida chop qilingan. Ogahiyning olti jildlik "Asarlar" kitoblariga kirgan lirik asarlarini va ,albatta, 9-sinf maktab darsligi va II bosqich akademik litsey o'quvchilari uchun mo'ljallangan darsliklarni tanladik. Ishimiz bu borada qilinayotgan birinchi tajriba bo'lganligi tufayli muayyan kamchiliklar bo'lishi mumkin. Ishda shoir asarlarini imkoniyatimiz qadar tahlilga tortishga harakat qildik.

I bob. Muhammad Rizo Ogahiy hayoti va adabiy merosi.

1§. Ogahiy hayoti va ijodiy faoliyati.

Milliy mustaqillik mafkurasi adabiy merosga halol, xolisona munosabatni talab etadi hamda uni davlat va jamiyat rivojlanishidagi tayanch tamoyillardan biri sifatida tushunadi. Shuning uchun ham biz o`z bitiruv malakaviy ishimiz uchun milliy adabiy merosimizning muhim bir qirrasini Muhammad Rizo Erniyozbek o`g`li Ogahiyning hayotiy faoliyati va shoirlik mahorati mavzusini o`rganishni obyekt qilib oldik. Chunki insonning ko`ngil hayotiga teran kirib borgan Ogahiy din, axloq, ma`naviyat, adolat to`g`risida ham o`z fikrlarini ochiqdan-ochiq izhor qila olgan ulkan siymolardan biridir.

O`zining barakali ijodi bilan Ogahiy zamonasiga qaraganda hayratda qolarli darajada baland saviyali, hayotga chuqur, real qarovchi shaxs bo`lib, shoir sifatida esa nafosatni sezishda nihoyatda didi baland, inson ichki dunyosini tubdan tushunadigan va ularni ifodalashda o`ta ketgan mohir san`atkor, so`z ustasi bo`lib gavdalanadi.

Shubhasiz, Ogahiy ulug` iste`dod va qobiliyat egasi bo`lgan. Gap faqat bundagin emas. Har bir iste`dod va qobiliyat ma`lum tarbiya va tarixiy, ijtimoiy sharoit mevasidir. Shu sababdan Ogahiy bu tariqada yetishtirgan tarbiya, adabiy-madaniy muhit va tarixiy sharoit to`g`risida qisqagina ma`lumot berib o`tamiz.

Muhammad Rizo Erniyozbek o`g`li (Ogahiy –uning taxallusi) 1809-yili Xorazm xonligining poytaxti Xivadan 7-8 chaqirim uzoqlikdagi Qiyot qishlog`ida mirob oilasida dunyoga keldi. Uning ota-bobolari ko`p zamondan buyon Xorazm xonligida miroblik vazifasini bajarib kelganlar. O`zining faxr bilan guvohlik berishicha, ota-bobolari “Xorazm mamlakati sultonlarining davlatxoh umarosizubdatlaridin (ya`ni xayrixoh amirlarining saralaridan-Abdurashid Abdug`afurov) va O`zbekiya tavoifidin (toifalaridan- Abdurashid Abdug`afurov) Yuz dudmoni (qabilasi-Abdurashid Abdug`afurov) umdalaridin (eng nufuzlilaridan-Abdurashid Abdug`afurov) miroblig` mansabi oliysiga mansub” bo`lganlar. Voyaga yetganida o`zi ham miroblik mansabiga erishgan Muhammad

Rizoning bu otameros kasb bilan g`ururlanishi bejiz emas. Xususan, Xorazm sharoitida miroblik davlat ahamiyatiga ega bo`lgan juda nufuzli va ayni zamonda, mas`uliyatli vazifa bo`lgan. Bejiz emaski, Ogahiy ulkan shoir va tarixnavis olim sifatida shuhrat tutgan amakisi Shermuhammadni doimo “Munis mirob” deb ulug`laydi. O`z shajarasi va nomini zikr etgan har bir holatda ham beistisno “mirob” so`zini qo`shib yozishni zarur deb biladi.

Ogahiy dunyoga kelganda amakisi-mashhur shoir va muarrix Shermuhammad Munis mirob edi. Bo`lajak shoirning otasi, ya`ni Munis Xorazmiyning ukasi Erniyozbek ham savodli, ancha yuqori madaniy saviyaga ega kishi bo`ladi, ammo Ogahiy 3 yoshga yetganda Erniyozbek vafot etib, bo`lajak shoir shunday yosh vaqtida otadan yetim qoladi. Shu tufayli Ogahiyning tarbiyasi va bu oila xususida g`amxo`rlik Munis gardaniga tushadi.

Ogahiy yoshlikdan yaxshi tarbiya oladi, maktab keyin madrasada o`qib, o`sha zamonda o`rganish mumkin bo`lgan ilmlar bilan tanishadi. Dastlabki ma`lumotni Qiyot qishlog`ida olgach, Xiva madrasalaridan birida o`qishni davom ettirdi. Muhammad Rizoning ma`naviy kamolotida amakisi-shoir, ulug` murabbiy Shermuhammad Munis alohida o`rin tutadi.

O`qimishli oila farzandi Muhammad Rizo tarbiyasiga jiddiy e`tibor beradi. Uning o`zida o`qishga ham intilish, ilm egallashga rag`bat juda kuchli edi. Ayniqsa, adabiyot va tarixga qiziqish, she`riyat bo`yicha bahs-yig`inlarga havas yoshligidanoq uni olim-u shoirlar davrasiga tortar edi. O`zining bolalik va o`smirlik yillarini xotirlar ekan keyinchalik shunday yozadi:”Fazl-u kamol iqtisobiga (egallash, kasb etish-Abdurashid Abdug`afurov) maylu rag`bat ko`rguzub, madrasanishinlik rasmin ixtiyor qildim va har yerdakim, fuzalo va shuaro xaylining majma va majlisi bo`lsa-alarni xizmatig`a bormoqni o`zimga vojib va lozim bildim:

Qadam aylabon ilm yo`lida bosh,
Hunar kasbida aylar erdim talosh.
Ne tunlar manga xobu rohat edi,

Ne kunlar zamoni farog`at edi²¹.

Xuddi madrasadagi shu tahsil yillarida u o`tmish boy adabiyotimiz bilan chuqur tanishadi, she`riyatga ixlos qo`yadi, o`zi ham qalam tebrata boshlaydi, fors tilini mukammal egallab, forsiyzabon ijodkorlar meroslarini mutolaa qiladi. Ammo Muhammad Rizoning ilm-u hunarga bo`lgn tashnaligi to`la qonmasdan burun boshiga og`ir kunlar keladi-uning otasi bevaqt vafot etadi. "...Jahoni g`addorning gunogun jafosi va charxi kajraftorining rango-rang balosi sarvaqtinga yetushti va ro`zg`or anduhi shiddatining og`ir yuki tog` yanglig` boshim ustiga tushti", deb yozadi u nadomat bilan.

Bu qayg`uli voqeadan keyin bo`lajak shoir hayotida mashaqqatli kunlar boshlanadi, tirikchilik tashvishlari, oila tebratish majburiyati uni ham ruhiy, ham moddiy qiyinchiliklar bilan yuzma-yuz to`qnashtiradi. Ogahiy "Ta`viz ul-oshiqin" devoniga yozgan debochasida o`sha og`ir yillar haqida fig`on-nola ufurib turgan bunday misralar bitadi:

Kichiklikdin tushub boshimg`a kulfat,
Zamoni bo`lmadim beranju mehnat.
Qolib yolg`uz tuman anduh ichida,
Mehandin lashkari anbu ichida.
Na ishkim bo`lsa muhlik g`amga bois,
Falak qildi mening sha`nimga hodis.
Ko`ngulda yuz tutib yuz nav qayg`u,
Bo`lub ko`zga yorug` olam qorong`u.
Tuman ming g`amga tondim mubtalolig`,
Farog`u ayshu rohatdin judolig`²²...

Ana shunday og`ir kunlarda yosh Muhammad Rizoga amakisi Shermuhammad Munis yordam qo`lini cho`zadi, unga otalik va ustozlik qiladi, moddiy va ma`naviy yordamini ayamaydi. Bu yillarda Shermuhammad xonlikda shuhrat qozongan shoir, tan olingan tarixchi olim va ayni zamonda, obro`li davlat

²¹Ogahiy devoni, Ta`viz ul-oshiqin, 1905-yilgi Xiva toshbosma nashri, 2-bet.

²²Ogahiy devoni, 3-bet.

arbohi-bosh mirob edi. Amakisining bunday samimiy g'amxo'rligini Ogahiy "fayzi ilohiy" deya yuksak baholaydi. U g'azallarining birida ruhiy mamnuniyat bilan va amakisiga chin dildan minnatdorchilik ma'nosida:

Tong ermas, Ogahiy fayzi ilohiyga anis o'lsa,

Ki, ul bordur nasab ichra burodarzodai Munis.

kabi faxriya misralarini bitadi. Boshqa bir o'rinda esa o'zining "Munis mirob" ning parvarish va tarbiyasida ulg'aygan ("dastarparvarda") ligini alohida ta'kidlaydi.

Muhammad Rizoning, xususan, iste'dodli shoir va yirik tarixchi bo'lib kamol topishida Munisning xizmatlari katta bo'ldi. Munis o'z xonadonida va boshqa davralarda zamonasining yirik qalam ahli va fozillari ishtirokida muntazam o'tkaziladigan she'riyat yig'inlariga, ilm-fan bo'yicha suhbat-bahslariga Muhammad Rizoni ham faol qatnashtirib, davr adabiy va ilmiy hayotiga tortadi, undagi tug'ma qobiliyatning to'la namoyon bo'lishiga sharoit yaratadi.

Bo'lajak shoirning o'zi ham imkon topdi, deguncha mutolaaga beriladi, o'z bilimini oshirish haqida o'ylaydi, shoirlar va fozillar qoshiga borib, ular ziyosida bahra olishga talpinadi. "Ammo ro'zg'or tashvishotidin andak forig' bo'lg'on va fursat topg'on vaqtlarda,-deb xotirlaydi Ogahiy,-kamoli shavq va ixlos bila goho ulamoi izom (ulug' olimlar-A.A.) xizmatig'a rag'bat ila borub, nuktaronlig'lari sharbati lazzatidin shirinkom bo'lub, bahrai tamom olur erdim va goho shuaroyni donish iltizom suhbatlarinisur'at bilan axtarib, kitobxonlig'lari vaqtidin hazzi vofir (mo'l-ko'l lazzat, bahralar-A.A.) olib, ruhafzo iboratlarig'a quloq solur erdim".

Tug'ma qobiliyat va ana shunday jiddiy qiziqish, tinimsiz mutolaa va tirishqoqlik, shuningdek, Munisning ustodlik saboq-ko'maklari Muhammad Rizoning tez orada qalam ahli qatoridan ko'rinarli o'rin olishga, Ogahiy taxallusida iste'dodli ijodkor sifatida shuhrati orta borishiga olib keldi.

Munis Muhammad Rizoning faqat ijodiy kamolotidagina emas, balki ijtimoiy faoliyatida ham, uning jamiyat va davlat ishlarida yigitlik yillaridayoq faol ishtirok etishida katta xizmat qildi. Uni o'z qanotiga olib miroblik kasbining sir-asrorlarini o'rgatdi, o'ziga munosib o'rinbosar qilib tayyorladi. Shu boisdan ham

yigirma yoshlik Muhammad Rizoning Munis vafotidan keyinroq miroblik mansabiga tayinlanishi saroy ahli va jamoatchilikni taajjublantirmadi.

Ogahiy bosh miroblik vazifasida qariyb o`ttiz yil ishladi. Xizmat taqozosiga ko`ra u vohaning barcha tuman-qishloqlarini bir necha bor aylanib chiqadi, jamiyatning turli tabaqa vakillari bilan tanishadi, ular hayotini, yashash tarzini kuzatadi.

Yeturdim har jamoatga o`zumni,
Ochib ibrat ila har yon ko`zumni.
Barining holidin bo`ldum xabardor,
Ayon ko`nglumba bo`ldi borcha asror-

deb yozganida shoir to`la haqli bo`lgan.

Ogahiyning saroyga tortilishi, davlat ishlariga jalb etilishi, xonlikda juda muhim bo`lgan miroblik mansabiga tayinlanishi uning shaxsiy hayotida ham, ijtimoiy-ijodiy faoliyatida ham muhim burilish bo`ldi. U qomusiy bilim, kuch-g`ayrati, halol mehnati va yuksak insoniy fazilatlari bilan saroy doirasida ham katta obro` qozondi, hukmdorlar va a`yonlar e`tiboriga tushdi, bevosita taxt sohibi bilan muloqotga kirishish imkoniyatiga ega bo`ldi. Endilikda u nihoyatda faollashdi, ulamo-yu fozillar yig`inlarining nufuzli namoyondalaridan biriga aylandi.

Ogahiy saroy hayoti bilangina emas, butun xonlikning iqtisodiy holati bilan ham yaxshi xabardor bo`lgan. Aytish kerakki, bularning hammasi ijodiy faoliyatiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatdi, mavzu doirasining kengayishiga, dolzarb masalalarni xalqchil ruhda talqin etishiga qulay sharoit yaratdi. Bir qator asarlarning, xususan, tarixiy asarlari va ilmiy-badiiy tarjimalarining bevosita xonlar taklif-tavsiyalariga ko`ra dunyoga kelganligi, hukmronlar homiyligi va rag`batlantirishi bilan yaratilganligi bu xulosaning yaqqol dalilidir.

Ogahiy, xususan, o`zi ham iste`dodli shoir bo`lgan, she`riyat, san`at, hunar ahliga homiylik ko`rsatgan Muhammad Rahimxon Soniy-Feruz bilan qariyb o`n yil davomida yaqindan muloqotda bo`ldi. O`zaro hurmat va samimiyatga asoslangan bu yaqinlik ijodiy munosabatlarda ham samarasini berdi.

Xizmat bilan bog`liq safarlarning birida Ogahiy otdan yiqilib, oyog`i qattiq shikastlanadi va ellik yoshga ham to`lmay miroblik vazifasini tark etishga majbur bo`ladi. Ammo ta`kidlash lozimki, bu voqeadan keyin ham Ogahiyning saroy bilan yaqinligi, xon va uning a`yonlari qoshidagi obro`-e`tibori to`la saqlanib qolgan. Rasmiy davlat ishidan qutulgan Ogahiy qolgan qariyb yigirma yillik umrini tamomila ijodiy ishga, jumladan, she`riy asarlarni an`anaviy devon holida tartib berishga bag`ishladi. Xuddi shu yillarda u bir necha yirik tarixiy asarlarini, qator tarjimalarini yakunladi.

Shu o`rinda bir muhim masalaga aniqlik kiritish zarur. Gap Ogahiy shaxsiy hayotining qay tarzda kechganligi haqida. Ta`kidlash lozimki, uzoq yillar davomida mas`uliyatli davlat ishlarida bo`lish, xon va uning saroyiga yaqinlik, hukmronlar va a`yonlar qoshidagi katta obro`-e`tibor Ogahiyning barcha moddiy-iqtisodiy muammolarini uzil-kesil hal etgan, uni turmush tashvishlaridan, hayot mashaqqatlaridan butunlay xalos qilgan, shoir rohat-farog`atda beg`am umr kechirgan, degan noto`g`ri xulosalarga olib bormasligi kerak. Aslo bunday bo`lmagan. Butun xonlikning bosh mirobi amalda “bir kulcha” hajmida ham yerga ega bo`lolmay o`tgan. Mana, uning o`z so`zlari:

Yer yuzida, Ogahiy, chun yo`q sanga bir kulcha yer,

Borcha umringda na hosil aylasang miroblig`?!

Ogahiy doimo xonlik xizmatida bo`lganida ham, miroblik vazifasini tark etganida ham juda oddiy, kamtarona umr kechirgan. Saroy ahli qurshovida bo`lishiga qaramay, shoir o`zini ruhan yolg`iz, begona his etgan.

Ogahiyning butun ijodida zamonaning, o`sha muhitning ma`naviy-ruhiy ta`qib-tazyiqi va taqdir norasoligi-yu toleyi zabunligidan, “charxi kajraftorning” adolatsizligidan va zamona ahlining shafqatsizligidan shikoyat va norozilik ohanglarining, nola-fig`onning ko`rinarli o`rin tutishi, moddiy yetishmovchilikning o`ziga ajralmas hamroh ekanligining turli-tuman shakllarda, ochiq-oydin yoki imo-ishoralarda qayta-qayta qayd etilishi aslo bejiz emas!

Shoir dil-dilidan kuyunib:

Ogahiyga bo`lmadi chun ishrati dunyo nasib!

Ogahiyga ne o`tu ne luqma bordur, ne libos,
Holi gar budur-oni ayurgusi jondin sovuq:
So`z ichra, Ogahiy, bulbuldek aylab xush adolig`lar,
Makonim chug`zdek doim xarob o`lg`onga yig`larman;
Bu qish ne holi kechgay Ogahiyning
Ki, ne chakman anga bordur, ne po`stin-

kabi misra-baytlarni bitganida o`z shaxsiy hayoti lavhalarini, murakkab turmushi va ruhiy kechinmalarini haqqoniy ifodalagani shubhasiz. Chunki boshqa bir o`rinda asarlarida o`z hayotini ham, orzu-istaklarini ham badiiy ifodalaganini, bayt-misralar zimmasiga yuklanganini alohida ta`kidlaydi:

Qilgum ayoin murodim yuz qatla har g`azalda!

Ayni zamonda, saroy sharoiti, undagi qat`iylashgan tartib-qoidalar, turg`un an`analar, xonlar va ular qurshovi bilan uzoq yillar davom etgan muloqot, hukmronlar va saroy maddohlari davrasidagi hayot Ogahiy dunyoqarashi va ijodiga ham o`z ta`sirini ko`rsatganligini inkor etib bo`lmaydi. Shoir qalami ostidan chiqqan turli shakllardagi she`riy namunalarda, xususan, tarixiy asarlar tarkibida, badiiy tarjimalar muqaddimalarida ana shu ta`sirning aniq izlarini kuzatish mumkin. Shu bois Ogahiy merosida biz:

Dilkash ash`oringni ahli johga arz aylabon,
Tutma ko`z tahsin alardin g`ayri nafrin, ey ko`ngul!
Yoki:
Komronlar lutfidin ko`z tutma komingkim, alar
Elin nokom aylamoq birla yetarlar komiga!
Va:
Necha qallosh esam ham ag`niyo ollida bosh egmon!

kabi davlatmandlar va oliy mansabdorlarga nisbatan salbiy munosabatni ravshan ifodalovchi keskin xitoblar, hukmronlarning zo`ravonlik faoliyatini fosh etuvchi lavhalar qatorida xon va uning ayonlari sha`niga bitilgan madhiy namunalarga ham duch kelamiz.

Tabiatan tinib-tinchimas va nihoyatda serg`ayrat bo`lgan Ogahiy to umrining so`nggi yillariga qadar ijodiy-ilmiy ishdan to`xtamagan, o`zi uchun yetakchi bo`lgan har uch yo`nalishda, ya`ni badiiy ijod, tarixnavislik va tarjimalarda jadal, barakali qalam tebratgan. U 1874-yil dekabrda oltmish besh yoshida vafot etadi va o`zi tug`ilgan Qiyot qishlog`iga dafn etiladi.

Ogahiy buyuk lirik shoir edi. U “Ta’viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) nomli hajman katta devon tartib qildi, “Bayozi mutafarriqai forsiy” majmuasini tuzdi.

Ogahiy – tarixnavis. Ogahiytarixnavislik faoliyatini Munis tomonidan yozila boshlangan “Firdavsul-iqbol” asarining 1812-13-yillardan keyingi davrini yozish va to’ldirish bilan boshlagan. Shundan keyin Ogahiy turli yillarni qamrovchi 5 mustaqil tarixiy asarni yaratgan:

1. “Riyo’zud-davla”– 1825-42 yillarda Olloqulixon hukmronligi davrida Xorazmda yuz bergan voqealarni bayon qiladi.
2. “Zubdatut-tavorix” – 1843-46-yillarda hukmronlik qilgan Rahimqulixon davri voqealarini yoritadi.
3. “Jome’ul-voqeoti sultoniyy” – asosan Muhammad Aminxon davri, umuman, 1846-1855 yillar voqealari bayon qilinadi.
4. “Gulshani davlat” – 1855-64 yillarda hukmronlik qilgan Sayyid Muhammadxon davri voqealariga bag‘ishlangan.
5. “Shohidi iqbol”–Muhammad Rahimxon Feruz hukmronligining 1864-1872 yillari voqealarini o‘z ichiga oladi.

Ko`rinadiki, Ogahiy o`zining bu tarixiy asarlari bilan Xorazmning yarim asrdan ortiq tarixini bir butun holda jamlay olgan. Bu asarlar Xorazm xonligining iqtisodiy-siyosiy hayoti, tashqi va ichki aloqalarini o`rganishdagi asosiy va eng muhim manba sifatida ahamiyatlidir.

Keyingi davrlarda mazkur asarlarni yaratishda Ogahiy badiiy tafakkurining o`rni va ishtirokini o`rgangan olimlar ularning o`zbek tarixiy nasri taraqqiyotidagi ahamiyati yuqori ekanini e’tirof qilmoqdalar. Ularning fikricha, har bir qalamga olingan voqea yuqori poetik mahorat bilan ifodalangan.

Ogahiy zabardast muarrix sifatida o'z salafлари Abulg'ozi Bahodirxon, Shermuhammad Munis Xorazmiy kabi mutafakkirlar an'analarini davom ettirdi. U ustozi Munis tugatishga ulgurmagan Muhammad ibn Xovandshoh Mirxondning "Ravzat us-safo" asarining birinchi jildi tarjimasini, "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asarini Olloqulixon topshirig'iga binoan oxiriga yetkazdi. Tarixiy asarlarda Ogahiy tasvirlayotgan ko'p voqealarning shohidi bo'lganligi yoxudishonchli manbalarga asoslanganligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Muarrix asarlarida badiiy ijodning ko'plab ajoyib namunalari (o'xshatish, istiora, jonlantirish, ramz, chog'ishtirish)dan, hikmatli so'zlar, xalq maqollari, iboralari kabi og'zaki ijodga xos bo'yoqlardan mohirona foydalandi. Masalan, olim "Riyojud-davla" asarida 1827-yilda Oydo'st rahbarligidagi xalq qo'zg'olonini tasvirlayotib, o'zining bu voqeaga munosabatini ramziy timsollarda ifodalaydi:

Agar jam o'lsa uchqun bir makonga,
Bo'lur, albatta, otashgoh paydo.
Va agar har soridin yig'nolsa qatra,
Bo'lur tadrij ila to'fon huvaydo.

Ogahiyningtarjimonlikfaoliyatihamjudakattatahsingasazovordir.

Badiiytarjimaharbirmilliyadabiyotningajralmasqismidir.

O'zbekadabiyotitarixidahambadiiytarjimaborasidakattatajribato'plangan.

Atoqlitarjimanamoyondalariningsohadagixizmatlaribeqiyos.

Busan'atqanchalikko'pmutarjimvatarjimaasarlarniqamrabolmasin,

aksarhollardatarjimamaktabishaklidaemas, xususiyyishko'rinishidarivojlanibkeldi.

Faqatsohaningmumtoznamoyondalaripaydobo'lganzamonvamakondaginaularninga trofidatarjimamaktablarishakllandi.

O'zbekmumtozadabiyotiningyirikvakiliMuhammad

RizoOgahiyhamo'zdavridashoirlikvatarixnavislikdayuksakmahoratininamoyishetis

hbarobaridaXorazmtarjimamaktabigaasossolishbilanadabiymerosiningqimmatiniya

nadaoshirganijodkordir.

Haqiqatan,

ko'hnaXorazmshoirlariningo'zbekbadiiytarjimachiligigaqo'shganhissalarikattae'tir

ofgaloyiq. Sayfi Saroyi, Qutb, Haydar Xorazmiy, Nurmuhammad Andalibkabishoirlaroʻzfaoliyatlarini individual shaklda olib borgan edi lar. Ularning analarini Shermuhammad Munis XIX asr boshida davom ettirib, Muhammad Mirxondning yettijildan iborat “Ravzatus-safo” asar tarjimasiga kirishdiva butarjima keyinchalik mavjudanʻananing maktab shaklini olishiga turtkiboʻldi.

Munisning “birodar zodavastparvarda” siboʻlgan Ogahiy oʻz faoliyati, faolligi bilanoʻshaanʻanani, yaʻnixonususiy joddoirasi nikengaytirib, tarjima maktabini vujudga keltirdiva uni eng baland choʻqqiga olib chiqdi.

Badiiy tarjima Ogahiy ijodida salmoqli oʻrinni negallaydi. Shoirning yuksak isteʼdodi uning tarjima asarlarida ham namoyon boʻladi. U musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlaridan yigirmadan ortigʻini katta mahorat ila oʻzbek tiliga tarjima qildi. Mutafakkir oʻzining “Taʼviz ul-oshiqin” devonining “Debocha” sida bu asarlarning toʻla roʻyxatini beradi. Shu oʻrinda Ogahiy tarjima qilgan asarlarning baʼzilarini keltirib oʻtamiz. Jumladan, Nizomiyning «Haft paykar», Dehlaviyning “Hasht behisht”, Kaykovusning «Qobusnoma», Muhammad Vorisning «Zubdat ul-hikoyat», “Shahri daloyil al-hayrat”, Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Yusuf va Zulayxo», “Salomon va Absol», Saʼdiyning «Guliston», Hiloliyning «Shoh va Gado», Mirxondning “Ravzat us-safo” (Munis boshlagan), Muhammad Mahdiy Astrobodyning “Tarixi jahonkushoyi Nodiriy”, Zayniddin Vosifiyning “Badoeʻ ul-vaqoeʻ”, Shayx Ali Gʻijduvoniyning “Miftoh ut-tolibin”, Muhammad Muqim Hirotiyning “Tabaqoti Akbarshohiy”, Muhammad Yusuf Munshining “Tazkirayi Muqimxoniy”, Rizoqulixon Hidoyatning “Ravzat us-safoyi Nosiriy” kabi asarlar Ogahiy tomonidan nasriy, sheʼriy va nasriy-sheʼriy usullarda oʻzbek tiliga tarjima etildi.

Biz yuqorida Ogahiyning faqat pedagogik hamda axloqiy-taʼlimiy asarlar tarjimalarini tilga olib oʻtdik. Bulardan tashqari, mutafakkir fors adabiyotidan yigirmaga yaqin adabiy-badiiy asarlarni oʻzbek tiliga oʻgiran.

Ogahiyning xonlikda, ayniqsa, Muhammad Rahimxon Feruz oldida eʼtibori nihoyatda yuqori edi. Faqat “Qobusnoma” ni emas, balki Shayx Muslihiddin

Sa'diyning “Guliston” asarini ham shahzoda Feruz topshirig'iga binoan tarjima qildi. Bu haqda mazkur tarjima debochasida quyidagilarni yozadi: “Shahzoda Muhammad Rahim to'ra faqirg'a hazrat Shayx Sa'diyning “Guliston” otlig' kitobini turk tili bila tarjima qilmoq xizmatini buyurdi... agarchi faqir ushbu ovonda bir shiddatlig' kasal mehnatidin nihoyatsiz notavon va g'oyatsiz hasta jon erdim. Ammo ul janobning mundoq marhamatidin sihat, balki quvvat sharbati lazzatin totib, baqadri hol bu xo'jasta fol xizmatini butkarmakka majolim boricha jiddi jahd ishin zuhurig'a yetkurdim. Bu avroq maydonig'a holim yetguncha ibtido qalamim markabin surdim. Haq taolo inoyatidin umid ulkim, faqirni itmom sarhadig'a vosil va ushbu murodimni hosil qilg'ay”²³.

Ogahiy va Feruz munosabatlari ko'proq Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini eslatadi. 1863-yili Feruzning otasi Sayyid Muhammadxon vafot etadi. 19 yoshli Muhammad Rahim Xiva xonligi taxtiga ko'tariladi. Uning salatanat sohibi bo'lishi toj-taxt uchun kurashlar, xunrezliklar bilan emas, balki saroy ahllarining, “shuaro va fuzalo xayli” ning xohish-irodasi bilan amalga oshdi. Bu holni Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarai Xorazmshohiy” asarida katta mamnuniyat bilan tasvirlaydi. Saltanat sohibini qutlash, bu voqeaga bag'ishlab ta'rix hamda qasida bitish Muhammad Rizo Ogahiy zimmasiga tushdi. Chunki o'sha davrda saroyda eng martabali inson Ogahiy edi. Uning 92 baytdan iborat ushbu “Mav'izatnoma” si Bayoniyniing tilga olingan asarida to'la keltirilgan. Unda shoir yosh xonga davlatni adolat bilan boshqarish haqida pand-nasihatlar qiladi, buning uchun u tarixda o'tgan hukmdorlar faoliyatini taxt sohibi ko'zi o'ngida jonlantiradi, ularning olib borgan ishlaridan to'g'ri xulosa chiqarishga da'vat etadi. Chunki u umri davomida yetti xon hukmronligini o'z boshidan kechirdi. Ogahiy davlatni adolat bilan boshqarishda zarur bo'lgan fazilatlar bilan birga, saltanatni parokandalikka olib boruvchi illatlar haqida ham ogohlantiradi. U o'z mav'izasida xonni pand-nasihatlarga izchil amal qilishga da'vat etadi:

Bu so'zlarnikim, men bayon ayladim,

²³Sa'diy Sheroziy. Guliston. Ogahiy tarjimasi, nashrga tayyorlovchi Subutoy Dolimov. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –Toshkent, 1993, 9-bet.

Necha bayt birla ayon ayladim.
Bularga qayu shahki qilsa amal,
Oning mulkiga yetmas aslo xalal.
Hukumat binosi bo`lur ustuvor,
Oning xonadonida tutg`ay qaror.
Shaho, olam ichra bugun shohsen,
Burundin bu so`zlarga ogohsen.
Umidim budurkim, amal qilg`aysen,
Amal aylamakda jadal qilg`asen²⁴.

Darhaqiqat, Ogahiyning ushbu “Mav`izatnoma” si Feruz uchun bir umr dasturulamal vazifasini o`tadi.

Ilmiy adabiyotlarda Ogahiyning tarjimonlikdagi yuksak mahorati ko`p bora e`tirof etildi. Xususan, professor N. Komilov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Ogahiyning individual mahorat va uning Xorazm badiiy tarjima maktabi shakllanishidagi xizmatlari hamda bu maktabning o`ziga xos bir qator xususiyatlari belgilab berildi. Bu tarjima markazi va Ogahiyning faoliyati haqida Ye. E. Bertels, H. Arasli, V. Abdullaev, G`. Karimov, S.Dolimov, R.Majidiy, A.Nosirov,

J.Sharipov kabi olimlar ham izlanishlar olib bordilar. Lekin bu tadqiqot va izlanishlarda, asosan, tarjimonning o`girma asarlarimundariyasi, ilmiy tavsifi, ularning mavzusi, g`oyasi, mazmun-mohiyati hamda muayyan asarining o`zbekcha lashtirilishidagi mahoratid o`irasidagi fikr yuritiladi.

Bu esatarijima maktabining shakllanish asoslariga uning yetakchi tamoyillari haqidagi muhim jihati to`la aniqlashimkinini bermaydi.

Professor N. Komilov Ogahiydan oldin Dilovar xo`jat omonidan qilingan “Badoe`ul-

vaqoe`” ning tarjimasida ham bunday nom mukammalliklarga yo`l qo`yilganigatalay misol larkeltiradi,

Ogahiy tarjimasining afzalliklariko`rsatiladi.

Ogahiy va uning atrofidagi tarjimonlar uslubidagi bunday nuqsonlarga deyarli yo`l qo`yil

²⁴Muhammad Yusuf bayoniy, Shajarai Xorazmshohiy. “Meros”, Toshkent, 1991 yil. 194-bet.

maydi.

Muxtasarqilibaytishmumkinki,

OgahiydanboshlanganXorazmiytarjimamaktabitarjimadaquyidagiprinsiplargaasoslangan:

1. Tarjimauchunxalqorasidaengkoʻpeʻtiroftopganbadiiyvaaxloqiydidaktikasarlarnitanlash.

2. Tarixiyasarlarniturkiyxalqlaroʻtmishigaaloqadorligivaundansaboqolishgaxizmatqilishidarajasigaqarabsaralash.

3. TarjimadaNavoiyvaBoburasarlaridafoydalanilganeskioʻzbektiligaxosgrammatikvaismloqoidalarigaqatʻiyamalqilish.

4. Tarjimadaoriginalasarmazmuni, gʻoyasi, poetikasivamuallifuslubinisaqlaganholdaungaXorazmadabiymuhitigaxospafos, ifodatarzinikiritish. Jumladan, tarixiyasarlarnihamsajʻvaboshqatasvirvositalaribilanboyitishhambumaktabningprinsiplaridanedi.

5. Asarmazmuniilmliziyolilarvaoddiysavodxonlargabirdaytushunarliboʻlishiuchunasarruhigamosinterpretatsiyadanistalganchafoydalanish.

6. Nasrnikoʻproqrivojlantirish.

Ogahiyningtarjimonlikfaoliyatianashutamoyillargatoʻlasoslanadi. Uningatrofidafaoliyatolibborgansaksongayaqintarjimonbutamoyillargaamalqilishgaqoʻllaridankelganchaharakatqildilar.

1§. Ogahiy lirikasi va uning mavzu ko`lami.

Ogahiy va uning ijodiy merosini o`rganish 1950-yillardan boshlangan. 1958-yilda “Tanlangan asarlar”, 1960 yilda “Ta’vizul-oshiqin” devoni nashr etiladi. 1971-1980 yillarda Ogahiy asarlarining 6 jildligi nashr qilinadi. Shoir ijodiy merosini o`rganishda V.Zohidov, G`.Karimov, S.Dolimov, R.Majidiy, A.Qayumov, J. Sharipov, F. G`anixo`jayev, Q. Munirov kabi olimlarning alohida o`rni bor.

Ogahiy shoir, tarjimon va bilimdon tarixchi sifatida boy ijodiy meros qoldirgan. Uni juda ko‘p adabiyotshunoslar “Navoiydan keyin eng ko‘p va xo‘b yozgan ijodkor” sifatida talqin qiladilar.

Ogahiy she’riy merosini o‘zida jamlagan to‘plami uning “Ta’vizul-oshiqin” – “Oshiqlar tumori” deb nomlanuvchi devonidir. Uni tuzish 1852-yilda boshlangan. Unda 18000 misra she’ri jamlangan. Shundan 1300 misrasi fors tilida. Devonning debochasida aytilishicha ham, boshqa ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha ham, “Devon” shoirning barcha she’rlarini qamrab olmagan. V.Abdullayevning ko‘rsatishicha, devondagi she’rlarning aksariyati shoirning 60-yillardan keyin yaratgan she’rlaridir. Lekin bu fikr biroz munozarali.

Hozirda bu devonning 1905-yilda kotib Muhammad Ya’qub Xarrot tomonidan ko‘chirilgan bir qo‘lyozma hamda 1905- va 1909-yillarda bosilgan 2 ta

toshbosma nusxalari boʻlib, shular asosida u 1958, 1960, 1971– 1972 yillarda kirill yozuvida qayta nashr qilingan.

“Taʼvizul-oshiqin” debochasida aytilishicha, shoir umrining soʻnggi oʻn yilligida Muhammad Rahimxon - Feruzning maslahati bilan bunyod etilgan: “Bir necha muddatdin soʻng bir kun faqirgʻa inoyat bila boqib, dilnavozlik yuzasidan xitob qilib dedikim, barcha musavvada (qoralama)lardagi, bayozlardagi va oʻzga yerlardagi parishon boʻlgan sheʼrlaringni jam etib, devon suratida tartib bergil va anga debocha ham yasab, aytilgan ashʼoringni dogʻi hamul devonda oʻz mahallida guhar yangligʻ tergil. Dedikim, kishidin to qiyomatgacha boqiy qolaturgʻon yodgor va farzandi saodatosor-yaxshi soʻzdur...

Boʻlibdur sheʼr yaxshilar shiori,
Jahonda to qiyomat yodgori.
Kishiga sheʼrdin yoʻq yaxshi farzand,
Ki doim boqiy ul farzandi dilband.
Soʻzingdur oʻzga soʻzlardin ziyoda,
Sango farzand-bizga xonzoda.
Ravo koʻrma alarga darbadarlik,
Yetimoso hamisha navhagarlik.
Alar haqqinda mehr oyinini tuz,
Vorisin yigʻibon devongʻa kirguz.
Yamon deb solmogʻil birni nazardin-
Ki, farzand oʻlgʻusi pora jigardin.
Necha yaxshi aro boʻlgʻay yamon ham,
Tuman bugʻdoy aro boʻlgʻay samon ham.
Agarchi ochilur yuz gul chamandin
Va lekin chorasi yoʻqdur tikandin.

Alqissa, bu amru shaʼrifni “Almaʼmuru maʼzurun” hadisining muqtazosi bila qabul ettim. Necha muddat koʻp mehnat va mashaqqatlar chekib, aksar ashʼorimni jametib, devon suratida bir necha avroq suturigʻa bitdim”.

Ogahiy devoni tarkibiga 18 xil janrdagi sheʼrlar kirgan. Bu janrlar quyidagilar:

1. Gʻazallar – 445 ta (shundan 23 tasi forsiy), 4056 bayt;
2. Mustazodlar – 3 ta, 24 bayt;
3. Muxammaslar – 84 ta, ulardan 10 tasi oʻz sheʼrlari asosida, Navoiy gʻazallariga 31 ta, Fuzuliy gʻazallariga 8 ta, Munis gʻazallariga 7 ta, Rojiy gʻazallariga 8 ta, Dilovar gʻazallariga 2 ta, Feruz gʻazallariga 9 ta, Amir, Xon, Vazir, Gʻoziy gʻazallariga 1 tadan taxmis yozgan (yana 5 ta forsiy muxammas, ulardan 4 tasi Bedil va Amir gʻazallariga bogʻlangan), 639 band, 3195 misra;
4. Musaddaslar – 5 ta, 36 band;
5. Murabbaʼlar – 2 ta, 24 band;
6. Musammanlar – 3 ta, (yana bir forsiy musamman), 27 band;
7. Tarjiʼband – 1 ta (4 sheʼr), 24 band;
8. Qitʼalar – 7 ta, 21 bayt;
9. Ruboiylar – 80 ta;
10. Tuyuqlar – 10 ta;
11. Muammolar – 80 ta;
12. Chistonlar – 4 ta;
13. Masnaviylar – 4 ta, 450 bayt;
14. Munojot (forsiy) – 27 bayt;
15. Taʼrixlar – 20 ta, 562 misra;
16. Musoviyattarafayn – 1 ta;
17. Bahri tavil – 1 ta,
18. Qasida – 19 ta,

Devon tanqidiy matni ustida tadqiqot olib borgan Fathulla Gʻanixoʻjayev “Ogahiy klassik poeziyaning 22 turida (janrida – N.Sh) ijod etgan”, degan fikrni aytadi, lekin uni asoslamagan. Bundan qatʼi nazar devon hoshiyasiga bitilgan sheʼrlar hamda Ogahiyning tarixiy asarlarida uchraydigan sheʼrlar shoir tomonidan qoʻllangan janrlar 18 tadan koʻproq ekanini koʻrsatadi. Xususan, tarixiy asarlarning

bir necha oʻrnida keltirilgan *fardlar* devonga kiritilmagan. Birgina shu dalil janrlar sonini 19 taga yetkazadi.

Ogahiy birinchi navbatda mohir gʻazalnavis shoir edi. U gʻazalning mavzu va shakl jihatdan har qanday turida erkin va ravon qlam surar edi. Ushbu janrning katta mahoratni talab qiluvchi nodir koʻrinishlaridan biri voqeaband gʻazaldir. Mana shu murakkab navda ham Ogahiy koʻplab gʻazallar yaratgan. Shunday boʻlsa ham Ogahiy sherxonlar orasida koʻproq lirik shoir sifatida shuhrat qozongan. Shoir oʻz sheʼriyatining oshiqlar qalbiga yaqin, ular bilan doimo tumor kabi hamroh boʻlishini, ishq ahliga sirdosh boʻlishini orzu qildi va devonini “Taʼviz ul-oshiqin” deb atadi.

Ogahiy gʻazaliyoti oʻzbek gʻazaliyotining Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, Munis gʻazallaridagi eng yaxshi anʼanalarning goʻzal va ijodiy davomidir. Unda oshiqona mavzuda yozilganlari asosiy oʻrin tutadi. Buni devon tarkibida uchrovchi mana bu bayt ham tasdiqlaydi:

Ogahiy holini gar ishq ichra bilmak istasang,

Chashmi ibrat birla dardangiz devonimga boq.

Eslatmoq lozimki, Ogahiy sheʼriyatining mavzu va gʻoyaviy mundarijasida, badiiy uslubi hamda poetik obrazlar sistemasida Navoiy va Munisning taʼsiri, ayniqsa, yaqqol sezilib turadi. Klassik poeziyadagi koʻpgina anʼanaviy xususiyatlar Ogahiy ijodiga shu ikki buyuk shoir tajribasi orqali oʻtgan, desak xato boʻlmaydi.

Ogahiy sheʼriyati, jumladan, gʻazaliyoti dunyoviy va ilohiy ishqni, inson komilligini, axloqiy goʻzalligini birlikda ifodalovchi asarlardir. U har bir asarini maʼrifat nurlari bilan goʻzallashtirib, ularning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishga harakat qiladi.

Ushshoq koʻnglun olgʻali xulqu malohat shart erur,

Yoʻq sarvaso qomatu ruxsorayi gulfomi shart,-

deydi shoir.

Uning tasviridagi sevuvchilar har qanday gʻaraz va manfaatdorlikdan uzoq, yuragi toza, dili pok, xushxulq, zukko shaxslardir. Masalan, u malak-siymo yor obrazini chizar ekan, uni Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida Mehinbonu

saroyidagi ilm-ma`rifatga intiluvchi, turli sohalarda o`z iste`dodini namoyon etgan qizlarga xos fazilatlar egasi tarzida ko`rishni orzu qiladi:

Ul malak siymoki, barcha ilm bo`lmish yor ango,
Ro`zu shab darsu saboq takroridur mo``tod ango...

Kasbi ilm etmay kishi agar qolsa mahzi jahl ila,
Ikki olam obro`si bo`lg`usi barbod ango...

Ilmdin bebahra el holini bilmak istasang,
Ogahiyning zor holin bilgil istishhod ango.

Ogahiy dilpazir, hayotsevar shoir. U insonlarni umrni g`animat bilib, ko`ngilni xush tutib, Olloh nasib etgan xursandchiliklardan bahramand bo`lishga chaqiradi. Buni go`zal insonlar mashvarati, o`yin-kulgusi, sharbat kayfi, mutribu xonandalarning yoqimli navolari, ko`ngil istaklari misolida ifodalaydi.

Ogahiyning juda ko`pchilik g`azal va muxammaslarida millatparvarlik, xalqparvarlik g`oyalari ilgari suriladi. Mehnatkash va zahmatkash elga yaqinlik, oddiy kishilar qismati uchun qayg`urish va o`zini mas`ul sezish Ogahiyning o`z davrining faol fuqarosi, vatanparvari darajasiga ko`taradi. Shoirning yuragini kuydiradigan holatlar-iqtisodiy ahvoli nochor, chorasizlikni chora o`rnida ko`rishdan boshqa imkoni yo`q kishilarning azob-uqubatlari edi. Ehtimol ana shuning uchun ham mutafakkir shoir qish shiddatidan tan-u joni titragan yo`qsillarning holini qog`ozga tushirgandir:

Ul gado holiga rahm et g`anikim, kechalar,
Qochirub uyqusin aylar diydasin giryon sovuq.

Ogahiy chin ma`noda millatparvar shoirdir. Uning qalbidagi millatga muhabbat hissi nihoyatda samimiy. Yoritayotgan his-tuyg`ulari tabiiy, fikrlari tarixiy ildizdan ajralmagan. Bu xil xususiyatlar uni vatandoshi buyuk ijodkor va mutafakkirlar Najmiddin Kubro va Pahlavon Mahmudga yaqinlashtiradi.

Shoir lirikasining g`oyat muhim xususiyatlaridan biri shuki, u o`z she`rlari orqali o`zbek xalqining milliy urf-odatlarini, uning ruhiyatini ajoyib bir tarzda

tasvirlaydi. Ayniqsa, Ogahiy masnaviylarida dorbozlar o`yini, kurash, musiqa bazmalri zo`r ehtiros bilan ifodalangan.

Ogahiy she`riyati, ta`vizdagi g`azallari majoziy ishq tasviridangina iborat emas, albatta. Uning devonida ishq haqiqiy tasvirida ham chuqur falsafiy-ijtimoiy mazmunga ega namunalar bor. Ayniqsa:

Ogahiy, jahd et, musohib bo`l haqiqat ahliga,

Tobakay bo`lg`ay majoz ahli bila ulfat sango-
maqtai bilan tugallangan g`azalida Ogahiyning ham majoziy-dunyoviy, ham haqiqiy-islomiy-ilohiy ishqqa falsafiy munosabati ifoda topgan. Hattoki shoir taxallusida ilohiyot sirlariga bog`liq ishoralarni ko`ramiz:

Ne tong, ogoh bo`lsa Ogahiy ishqing siridinkim,

Onga behuda ermas osmondin bu laqab paydo.

Demak, u taxallus tanlaganida ham ilohiy ishq-Oллоhga muhabbat sirlaridan ogohlikni, xabardorlikni nazarda tutgan.

Ogahiyning:

Sahar hovar shahi charx uzrakimxayli hasham chekti,

Shio`i xat bila ko`hsor uzra oltun alam chekti

matla`li Navoiy g`azaliga bog`lagan tazmin muxammasi va boshqa orifona she`rlari tasavvufiy mundarijaga ega asarlardir. Biroq shuni alohida uqtirib o`tmoq lozimki, Ogahiy g`azaliyoti, boshqa janrlardagi asarlarida zamondagi haqsizliklarga, nochorliklarga, adolatsizliklarga norozilik, dahri dunning cheksiz kulfatlari va kamsitishlariga isyon aniq hamda kuchli sado berib turadi. Uning:

Tarab bazmi aro bekorlar doim qilib ishrat,

Hamisha xizmat ahli mubtalodur ranju mehnatga...

Ravnaq she`ri –ku?!

Ul gado holig`a rahm et, ey g`anikim, kechalar,

Qochurub uyqusin aylar diydasin giryon sovuq...

Xarob o`lsun ilohi gunbazi davvori charxi dun,

Ki doim davri kajdur, tavri shum, hayati vojun...

baytlarini o`z ichiga olgan g`azallari Ogahiy g`azaliyotining real ijtimoiy asoslarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ogahiy g`azallari badiiylilik nuqtayi nazaridan ham haqiqiy san`at mevalaridir. Ularda alvon-alvon lafziyva ma`naviy san`atlar, qofiya, radif hamda aruz vaznlari jilvasini ko`ramiz. Quyidagi baytlarda misralar ichida ham qofiyalar ishlatib, she`rda ritmik ohanglarni yuzaga keltirishga imkon yaratuvchi musajja` san`ati ishlatilgan:

Mehru vafo rasmin tuzub, javru jafo tavrini buzub,
Shirin tabassum ko`rguzub, la`li duraxshonim kelur,

Dardu dilingni so`rg`ali, sorig`yuzingni ko`rgali,
Damsoz bo`lub o`lturg`ali, yori qadrdoning kelur.

Quyidagi baytda esa xalq maqollaridan adabiy muddao ifodasi yo`lida foydalanish san`ati qo`llanilgan:

Xunob ichar vaqtimda xush keling ko`ngulkim xalq aro,
Yaxshi masaldurkim: “Kelur yaxshi kishi osh ustina”.

Ogahiyning “Sizmusiz” radifli g`azali to`liq tarzda so`ramoq (istifhom san`ati) san`ati mevasidir. Bir bayti:

Nozi karashma bog`ining sarvi ravoni sizmusiz?
Oshiq xasta jismining rohati joni sizmusiz?

Mana bu baytlar ham Ogahiyning xalqning qochirim, hazil iboralarini, so`z o`yinlarini nechog`li yaxshi bilib, xalq she`riyatiga xos yumoristik baytlar yaratishga mohir ekanligidan dalolat berib turadi:

Soldi o`t ko`ngluma o`g`rin boqishing,
Oldi jonimni qarab qosh qoqishing,
Qolmag`ay kul bo`lmayin boru yo`qim,
Gar bu ersa ishva o`tin yoqishing.

Mohir so`z ustasi Ogahiy ham eski o`zbek alifbosidagi harflar ba`zi harflar shakllaridan badiiy ashyo va tasvir vositasi sifatida foydalanadi:

Dog`uzra alifdurmu ko`ksim uzra chekmish hajr,

Yo dard sipehrida mehvarmu ekan oyo?

Bu baytda shoir “dog” va “dard” soʻzlarining yozilish shaklidan foydalanib, soʻz oʻyini yasagan.

Ogahiyning mashhur “Ustina” radifli gʻazalining matlaʼ bayti ham shu sanʼatning oliy namunasidir.

Ogahiy gʻazallarida, umuman, lirik sheʼrlarida aqlga sigʻmaydigan mubolagʻalar, uning tabligʻ, igʻroq, gʻuluvv kabi aqlan ishonish mumkin boʻlgan, oʻta kuchaytirilgan, baʼzan aql bovar qilmaydigan turlari uchraydi.

Ohimdan uchub havogʻa togʻlar,

Yor yuzi sarosar oʻldi homun...

Oʻyla toʻfon xez boʻldi ashku ohimdin bori,

Yor yuzin gʻarq aylab etdi mavj urar gardunda suv.

Ogahiy, umuman, Munisdan eʼtiboran xorazmlik shoirlarning koʻpida sheʼrda muayyan soʻzni takror qoʻllash sanʼati hisoblangan takrirning ham xilma-xil koʻrinishlarini uchratamiz. Ogahiyning bir gʻazalidagi matlaʼdan maqtaʻgacha qoʻllangan takrir sanʼati gʻazal baytlarining ikkinchi misralarida ifodalanayotgan maʼnolarni kuchaytirib, birinchi misralardagi oshiq dardlarini yorqinroq ochishga xizmat qiladi:

Jonim olur, ey pari, holimgʻa boq

Ishtiyoqu ishtiyoqu ishtiyoq.

To mani furqatda qoʻyding nolishim

Al-firoqu al-firoqu al-firoq.

Aylamishsam qatlima agʻyor ila

Ittifoqu ittifoqu ittifoq.

Bovar etmassan desam yuz yolborib,

Koʻnglum oqu koʻnglum oqu koʻnglum oq...

Professor A. Hojiahmedovning “She`riy san`atlar va mumtoz qofiya” risolasida qofiya san`atlari xususida juda muhim nazariy ma`lumotlar, tahliliy sharhlar keltirilib, bu san`atda Ogahiyning o`zgacha o`rni borligi qayd etilgan. Binobarin, Ogahiy she`riyati o`z mavzularining zamonaviyligi, dolzarbligi, ma`no va mazmunining chuqurligi bilan birga, badiiy-estetik jihatdan go`zalligi bilan ham ibratli adabiy maktabdir. Uning she`rlarida vazn, qofiya noqisliklari umuman uchramaydi.

Ogahiy she`riyatida umuminsoniy g`oyalar yuksak badiiy talqin qilingan bo`lib, shoir ijodining poetik o`ziga xosligini ko`rsatishda uning asarlarini shu nuqtayi nazardan tahlil qilish muhimdir. Shoir xarakteridagi samimiyat, poklik, to`g`rilik uning qalbidagi insonparvarlik tuyg`ularini yanada kuchaytirgan. U o`z atrofidagi amaldorlarning yulg`ichligi, ochko`zligi, riyokorligini ko`rib, ulardan nafratlanadi. Ammo ularning boyliklariga havas ham, hasad ham qilmaydi. Chunki Ogahiy ichi qoralik, hasadgo`ylik o`z joniga qilgan jabri ekanligini yaxshi bilar edi. Shoir o`zining halollik va to`g`rilik haqidagi badiiy fikrini quyidagicha bayon qilgan:

Qo`ygil piyoda ruh rahi xizmati, ey ko`ngil,
Gar shohdin yiroq tushubon bo`lsang otsiz.
Farzin misol yurma vale har tarafga kaj,
To fil surgasen bu bisot ichra motsiz²⁵.

Ya`ni shoir farzin misol har tomonga moyil bo`lib, qing`ir yo`llar bilan davlat orttirishni emas, balki ruh, “fil” singari tog`ri yuruvchilarga o`xshab, hayotda qoqilmasdan yurishni ma`qul ko`radi.

Bilamizki, hayotda kinoya, kesatqlarning ham o`z o`rni bor. Kinoyadan anglashiladigan haqiqiy mazmun va g`oya mulohaza va tafakkur bilan topib olinadi. Ogahiy yuqoridagi parchada o`z g`oyasini ifodalash uchun shaxmat donalarining taxtadagi o`rni va harakat yo`nalishidan foydalangan. Quyidagi

²⁵Огахий. Асарлар. 1-жилд. 43-бет.

parchada ham shaxmat donalari singari harakat qilish kerakligi aytilsa-da, aslida uning aksini bajarish lozimligini sezib olish qiyin emas:

Ruh kabi shahdin yiroq o`lmay desang bu arsada,
Har tarafga moyil o`l andoqqi farzin, ey ko`ngul²⁶.

Navbatdagi baytda esa shoir go`yoki rostravlik-to`gri yurish-turish qilganligidan afsuslanayotgandek bo`lib ko`rinadi. Ammo bilamizki, qalloblik, riyokorlik kimlargadir zarar yetkazishini bilgan Ogahiy hech qachon bunday afsuslanishlarga yo`l qo`ymaydi. Farzinga o`xshab qing`ir-qiyshiq yo`nalishlar (egri yo`llarda) harakat qilganingda e`tiborga sazovor bo`lar eding. Sen to`g`ri odam bo`lganing uchun ruhga o`xshab faqat to`g`ri yurding,-deydi shoir.

She`rlarning mazmunidan ma`lumki, Ogahiy ikkiyuzlamachilik, munofiqlik qiluvchilar bilan sira ham chiqisha olmagan. Darhaqiqat, insonparvar odam to`g`riso`z va haqiqatparvar ham bo`ladi. Chunki “halol va to`g`riso`z odamlar uchun “insonparvarlik” degan so`z taraqqiyotining dushmanlariga qarshi faol kurash olib borish javobgarligi bilan bog`liqdir. Inson amalda ham insonparvarlikni quvvatlay oladi va shunday qilishi kerak”.

Ogahiy hayotining juda ham go`zal bo`lishini orzu qiladi, u odamlarning birlariga g`amxo`r va mehribon bo`lishlarini istaydi. U aynan mana shunday fikrni bildirmagan bo`lsa ham, ammo uning intilishlari, insonparvarlikning katta-yu kichik dushmanlariga qarshi olib borgan kurashlari shu tarzda deb o`ylashga asos bo`la oladi.

Ogahiy devonidan o`rin olgan qator g`azallarda uning ko`plab amaldorlardan noroziliklari ifodalangan. Ochko`zlik, zulm, jaholat, g`aflat va manmanlikka qarshi turuvchi Ogahiy o`z tanqidiga nishon bo`lgan odamlar singari yashashi mumkin emas edi. Shoir podsho atrofidagi laganbardor, qallob, ikkiyuzlamachi, xudbin kishilarni fosh etuvchi misralarni bitgan.

Endi shoirning quyidagi go`zal baytini tahlilga tortaylik:

Kasbi jahl et, ey ko`ngul bu burudatgoh aro,
Istasangkim jisming o`lg`oy qish ila sanjobliq²⁷.

²⁶ Ўша асар, 225-бет.

Keltirilgan baytdagi “burudatgoh” atamasi “qish” ma’nosini bildiradi. Chunki “burudat”-sovuq demakdir. Tabiiyki, bu qish ayrimlar uchun “bahordek” yoqimli bo’lsa-da, ruh va fil singari to’g’ri yuruvchi Ogahiy uchun yoqimsiz edi. Chunki Ogahiy saxovat, himmat va olijanoblik bor joylarni bahodek yoqtiradi, ammo xudbinlik va ochko’zlik hukm surgan hamda jaholatga erk berilgan joyni emas. Ogahiyning kinoyasidan quyidagi mazmun kelib chiqadi: Ey ko’ngil, agar qishning sovuq kunlarida uzun mo’ynali issiq po’stinlarni kiyib yurishni istasang, johillikni o’zingga kasb qilib olib, qishning qahratoni singari zaharingni tomizib yurgin, o’zingga yaxshi bo’lsin, ammo boshqalarga azob bo’lsin. Shunday qilib shoir korib o’tilgan bir necha baytlarda kinoya san’atidan o’rinli foydalanganligi uchun o’z fikrini esda qoladigan va ta’sirchan ifodalab, xudbin va johil kishilarni fosh eta oldi.

Devonidagi g’azallar 7, 9, 11, ba’zan 15, 17, 23 baytdan iborat. G’azal janri rivojida Ogahiyning munosib xizmati bor. U voqeaband, dialog – munozara g’azallar yaratib janr imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Yor va oshiq muloqoti orqali kichik lirik – dramatik sahna yaratishga erishdi. Qasida janri orqali ham chuqur falsafiy – axloqiy xulosalarini, o’gitlarini ifodalashga muyassar bo’ldi.

Ogahiy o’zbek shoirlari ichida eng ko’p musammatlar yaratgan shoirlardan biridir. “Taviz ul-oshiqin” devonida ikkita murabba’, 89 muxammas, 5 musaddas, 4 musamman keltirilgan. Ko’rinadiki, Ogahiy muxammaslar yaratishga alohida e’tibor bergan. Uning 89 muxammasi ichida Navoiy g’azallariga bog’langanlari 30 ta. Shulardan 26 tasi “Taviz ul-oshiqin” ning 1960-yildagi nashriga kiritilgan. Ogahiy Mavlono Fuzuliyning 5 ta, Munisning 4 ta, zamondoshlaridan Rojiy Xorazmiyning 3 ta, shoh va shoir Feruzning 5 ta, Dilorvorning 1 ta, Amiriyning 1 ta, G’oziyning 1 ta g’azaliga muxammaslar bog’lagan. Ogahiyning qolgan 40 dan ortiq muxammasi o’zining mustaqil va bir nechasi o’z g’azallariga o’zi yozgan muxammaslardir. Aytish mumkinki, Ogahiy muxammas she’rlar ijod qilishda birinchi navbatda Navoiy tajribalariga, qo’llagan usullariga murojaat etdi. U Navoiydan so’ng shu janrni eng yuksak bosqichga ko’tara olgan shoir bo’ldi.

²⁷ Огахий. Асарлар. 1-жилд. 273-бет.

Navoiy gʻazallari ichida sheʻrga shoʻx, oʻynoqi, hazilomuz ruh bagʻishlovchi “Qildila” radifli gʻazal bor. Ogahiy Navoiyning shu radifdagi gʻazaliga muxammas bogʻlashdan tashqari, shu8 shevada “Etytilo”, “Ayladilo”, “Boʻldilo” radifli yangi gʻazallar ham bitdi.

Ogahiy:

Faqr eliga kulbasi mulki jahondin yaxshikim,
Onda eski boʻryo taxti Kayondin yaxshikim,
Tinchlik birla atola noʻshi jondin yaxshikim.

Navoiy:

Zahrni oʻz komi birla ichsa ondin yaxshikim,
Obi hayvon sharbatin nokomligʻjomi bila.

Navoiyning bu gʻazali mazmunida shaxs erkini yoqlash gʻoyasi ifodalangan. Ogahiyning Navoiy gʻazaliga bogʻlagan mana bu muxammasida ham tazmin muxammaschilik qoida va talablariga toʻla rioya qilinganligini koʻrish mumkin.

Ogahiy:

Ey koʻngul, boʻlsang agar xushu xiuraddin bahra yob,
Charxdin koʻz tutma boʻlmoq dahr aro izzat maob,
Nogahon aylab sango bir mehr qilmoq irtikob.

Navoiy:

Sochsa anjumdin falak boshinggʻa yuz ming durri nob,
Jolai gʻam bilki yogʻdurgay bir ofatligʻ sahob.

Ogahiy:

Yoʻq hadaf bu jolagʻa ahli jahondin oʻzgakim,
Etkach oʻq majruh qilmas jismu jondin oʻzgakim,
Yozmoqidin sud yoʻq elga ziyondin oʻzgakim.

Navoiy:

Ne gʻaraz bu jolani yogʻdursa ondin oʻzgakim,
Umr nahlin sindurub tan gulbanin qilgay xarob.

Keltirilganb bandlarda fikrlar bir-biriga shu qadar bogʻlanganki, ularning ikki muallif-Ogahiy va Navoiy misralari ekanligi mutlaqo sezilmaydi.

Ogahiyning “Arzimas” radifli gʻazal va muxammasida taʼmagirlik qoralanadi. “Mol-dunyo orttiraman deb oʻzingni xarob etma, qanoat rasmini tut, boriga shukr qil, halol yasha” degan gʻoya ilgari suriladi.

Ogahiy oʻzining ishqiy, ilohiy, ijtimoiy-taʼlimiy fikrlarga toʻla quyidagi matlali gʻazallarini ham, yuqoridagi poetik maqsadlarni koʻzda tutgan holda, beshlamalarga aylantirgan.

Bogʻu bahor aro netong boʻlmasa gar qarorimiz,
Kim, sari koʻyingiz erur bogʻimiz bahorimiz...
Dahr bazmu ayshi anduhi gʻamiga arzimas,
Sharbatu jonparvari muxlik samiga arzimas...

Boʻldi laʼli jonbaxshing uzra to namoyon xat,
Ey pari, Xizr yangligʻ toti jovidon jon xat...
Koʻnglum gʻamini doʻstlarim, yorima ayting,
Jonim alamin laʼli shakarborima ayting...

Bu kim charx oftobi evrilur har lahza boshingdin,
Taraddud birla tinmay kasbi nur aylar quyoshingdin...
Bogʻi jahonki xushturu gulshani aysh xonasi,
Rohati jismu jonparvar bazmu tarab nishonasi.

Ogahiyning bir qancha barkamol ruboiylari bor. Ular “Taʼviz ul-oshiqin” devoniga kiritilgan. Ilmiy-tarixiy asarlar tartib berish qoidasi, anʼanasiga koʻra shoirning koʻp toʻrtliklari uning boshqa asarlarida ham bor.

Ogahiy ruboiylarining mavzu doirasi, gʻoyaviy mundarijasi keng. U koʻproq Navoiy, Bobur va amakisi Munis tajribalariga suyanadi, ular ijodi, jumladan, ruboiylaridan ilhom olib, soʻz qudrati, maoniy hikmati, davr jarohati, himmat, adolat, sadoqat, maʼrifat haqida quyma misralar bitadi. Ogahiy ruboiylari bu janr talablariga toʻla javob bera oladigan, maʼnosi teran, kompozitsiyasi, shakliy-texnik jihatklari mukammal asarlardir. Mana, ayrim misollar:

To kajlik ila kirdi falak davrongʻa,

Donbo hama non gadosidur nodong`a,
Tuzluk bila aylansa erdi gar gardun,
Nodon ko`zi tushmagayerdi bir nong`a.
Qilmoq biola parvarish tikan gul bo`lmas,
Ham tarbiyat ila zog` bulbul bo`lmas,
Gar asli yomong`a yaxshiliq ming qilsang,
Yaxshiliq oning niyati bilkull bo`lmas.

Ogahiy ruboiylarining ko`pi sevgi, hayotiy-maishiy mavzularda. Shu bois, realistik elementlar kuchliu, ular o`sha davr fuqarosi Ogahiyga o`xshagan fozil kishilar tortayotgan qiyinchiliklar haqida tasavvur beradi. Ular orasida qish, sovuq turkumidagi ruboiylar ham bor.

Ogahiy qit`alari donishmandlik mevalaridir. Ularni mavzu va mundarijasiga ko`ra, ikki guruhga bo`lib o`rganish mumkin. Birinchi xillarida tanqid, satiraga xos bo`yoqlar ustun turadi. U;larda turli toifadagi shaxslar-shuhratparastlar, xushomadgo`ylar, xasislar, poraxo`rlar, diyonatsiz, nopok kishilar fosh etiladi. Ikinchi xillarida odob, acxloq ulug`lanadi. Bu she`rlarning ahamiyati hozir ham katta.

Ey ko`ngul, kimsakim seni sevmas,
Qoch, oning tegrasiga aylanma.
Ki nasihat qilurda o`tkanlar
Dedilar: “Sevmaganga suykanma”.

Ogahiy qit`alari ichida siyosiy ohangdagi, hukmdorlarni o`ylamay ish tutib xalq g`azabiga yo`liquvchilarni hushyorlikka da`vat etuvchi namunalar bor. U 1842-yilda qoraqalpoqlarning Oydo`st rahbarligida ko`tarilgan qo`zg`olonining shafqatsizlarcha bostirishi munosabati bilan mana bu qit`ani yaratadi. Qit`a siyosiy-aforistik asar darajasidadir:

Agar jam` o`lsa uchqun bir makong`a,
Bo`lur, albatta, otashgoh paydo.
Va agar har soridin yig`nalsa qatra,
Bo`lur tadrij ila to`fon huvaydo.

Ogahiy yaratgan tajnisli toʻtliliklar, tuyuqlar oʻz xususiyatiga koʻra diqqatga sazovordir. Ogahiy tuyuqlariga xos bir afzallik shundan iboratki, u bu janr doirasida faqat ishqiy-intim kechinmalarni ifodalash bilangina cheklanib qolmaydi, ularda inson kamoloti, tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlgan axloqi-maʼrifiy gʻoyasalarni ham tartib etadi, soʻzlarning turli maʼnolarda kelishidan foydalanib tuyuqlar yaratadi.

Uch baland aylab qanoatni qanot,
Kim, yering hirs aylamish qaʼri qanot.
Ilgina olib riyozat toshini,
Kibru naxvat boshin ul toshdin qanot.

Ogahiy bu tuyugʻida qanot omonimi qanot (qush qanoti), maqonatish (buyruq feʼli) maʼnolarida kelib, muhim didaktik tezisni ifodalashga xizmat ettirilgan. Shu soʻzning oʻzi tajnisli qofiyalar silsilasida, umuman, birinchi bor koʻzga tashlanadi. Ogahiyning quyidagi tuyugʻi ham shunday xususiyatlarga ega:

Boʻldi chun umring kunining vaqti tush,
Nafsi sargasht otini koʻb chopma, tush.
Xobgoh etkil qanoat manzilin,
Yoʻqsa hargiz koʻrmagungdir rost tush.

Ogahiyning bu toʻrtlik tuyugʻidagi birinchi “tush” kunning tush paytini, shu orqali kishi umri yarim boʻlganligini, ikkinchi misradagisi oddiy otdan tush, toʻrtinchi misradagi “tush” esa uyquda tush koʻrishni bildiradi. Shu tuyuqda toʻplangan oddiy omonim soʻzlar shoir mahorati tufayli turli maʼnonigina emas, balki nafs bandasi boʻlmasdan, qanoatli boʻlish kabi chuqur mazmunni ham ifodalab kelgan.

Demak, Ogahiy sheʼriyati janr nuqtayi nazaridan keng qamrovlidir. Mavzu nuqtayi nazaridan yondashadigan boʻlsak ham, bu merosda oʻziga xos rang-baranglikni koʻramiz. Maʼshuqaning beqiyos husni jamoli taʼrifi, oshiqning turli holatdagi ruhiy kechinmalari tavsifidan iborat anʼanaviy muhabbat mavzusi, axloqiy-taʼlimiy, hayotiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masala va muammolar Ogahiy uchun asosiy mavzu boʻlib qolgan.

Agar Ogahiy she'riyatini izchil bir tarzda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, ko'z o'ngimizda hayotning achchiq-chuchugini totgan, yaxshi-yomon so'qmoqlardan o'tgan va bu yo'lda ko'rgan-kechirganlaridan umrboqiy xulosalar yasay olgan ogohnuroni bir kishining qiyofasi gavdalanadi.

Ana shu qiyofa ba'zan hayotiy-falsafiy fikrlarini bayon etib, pand-u nasihatlar qiladi. Sabrni, qanoatni, hayotda ogohlikni pesha qilmoqlik umrimiz mazmuni, manguligimiz manbayi bo'la olishini uqtirmoqchi bo'ladi.

Ba'zan esa u qiyinchiliklar ostida kun kechirayotgan fuqaroning boshini saxiylik bilan, muruvvat bilan, futuvvat bilan silamoq istaydi. O'z davrining podshoh, bek va amaldorlarini shunga da'vat etadi. Ba'zan esa o'zi shariatni tumor qilgani holda, ayrim shariat peshvolarini tanqid qiladi.

Ko'rinadiki, "har toifaning holig'a loyiq... bir mazmun shohidining xayoli xotirim ko'zgusiga zuhur qilsa erdi, gunogun iboratlar bilan rangin nazmlar libosin kiydurub... xaloyiq nazarida namoyish berur erdim", - degan debochada aytilgan fikrlarga ishonch hosil qilamiz.

"Ta'vizul-oshiqin" devoniga shoirning "Ash'ori forsiy" sarlavhasi bilan forsiy tildagi she'rlari ham kiritilgan. Ular g'azal, muxammas, musamman, munojot, ta'rix va masnaviylardan iboratdir. Ularning jami 1090 misrani tashkil etadi. Forsiyda yozilgan she'rlar har jihatdan o'zbekcha she'rlardan qolishmaydi, tematik jihatdan mos keladi.

Xullas, Ogahiy shoir sifatida o'z zamonasining ijtimoiy va ma'naviy hayotining deyarli barcha jihatlarini qamrab olgan, zamondoshlari ruhiyatining nozik qirralarini to'la his qilib, nazmga solgan buyuk shoirdir. Shuning uchun ham shoir asarlari yillar o'tsa hamki, xalqimiz ma'naviy boyligi sifatida xalq e'zoziga va e'tiboriga loyiq bo'lib kelmoqda.

O'zbek adabiyotining taniqli tadqiqotchilaridan professor G'.Karimov va S. Dolimov domlalar Ogahiy asarlarining 6 tomligiga yozgan so'zboshilarida shunday e'tirof etishgan edi: "Zahiriddin Muhammad Bobur o'zigacha bo'lgan adabiyotimizga umumiy nazar tashlab, o'zbek shoirlari ichida "eng ko'p va xo'b" she'r aytgan shoir deb A. Navoiyni ko'rsatgan edi. Shu ixcham adabiy formula

nuqtayi nazaridan Boburdan keyingi adabiyotimizni ko`zdan kechirib, bu har ikki belgini o`zida barobar mujassam etgan, ya`ni ko`p va xo`b yaxshi yozgan shoirni tanlash zaruriyati tug`ilib qolsa, shubhasiz, birinchi navbatda Ogahiyga to`xtalish kerak bo`ladi»²⁸.

Demak, Ogahiy o`zbek she`riyati osmonida A. Navoiydan keyingi ikkinchi porloq yulduzdir. Uning adabiy merosini o`rganish va xalqimiz orasida targ`ib qilish, yosh avlodga o`rgatish biz, ya`ni buyuk vorislarning muqaddas burchimizdir.

²⁸Karimov G., Dolimov S. Muhammad Rizo Ogahiy, maqola Ogahiyning asarlar to`plamining 1-jildida. T.: Adabiyot va san`at. 1971, 5-bet.

II bob. Ogahiy hayoti va ijodini o`rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

2.1. Ogahiy hayoti va ijodining umumiy o`rta ta`lim va akademik litsey darsliklarida o`rganilishi.

Mamlakatimizning mustaqilligi davrida umumta`lim maktablari, kollej, litseylar uchun adabiyot darsliklarning yangi avlodi yuzaga keldi. Bu darsliklar, albatta, mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma`naviy hayoti bilan bevosita bog`liq bo`lib, unda mumtoz adabiyotimizning va hozirgi o`zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari kiritilgan. Darsliklar, albatta, ilmiy didaktik tomondan o`quvchilarning yoshi, bilimi va ma`naviy olamini boyitishga qaratilgan. Shu bilan birga, darsliklarda yozuvchi ijodiga xos xususiyatlarni aniqlash, uning poetik mahoratini belgilash, falsafiy–estetik qarashlarini yoritishda eng muhimi, ular ijodiga xos xususiyatlarni ilmiy jihatdan baholashda ayrim kamchiliklar ko`zga tashlanadiki, bu haqda biz malakaviy bitirish ishimizning keyingi boblarida shaxsiy fikrlarimizni bayon etamiz. Mamlakatimizning mustaqilligi davrida adabiyot fanidan yangi darsliklar bilan birga metodik qo`llanmalar ham yuzaga keldi. Bu darslik va qo`llanmalarda adabiyot fanini o`qitishning ilmiy-didaktik va nazariy hamda metodika bilan bog`liq bo`lgan fikrlar, shuningdek, dars samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar keltirilgan, eng muhimi darslik va qo`llanmalarda o`sayotgan yosh avlodga adabiyot vositasida bilim berishning mohiyati, ayniqsa, komil inson ma`naviyatini boyitishdagi o`rniga oid mavzular tavsiya etilgan. Metodist olim B.To`xliyevning “Adabiyot o`qitish metodikasi” (2010) qo`llanmasida “Adabiyot o`qitish metodikasi” fanining maqsadi, ta`lim bosqichlarida adabiyot kursining mazmuni, badiiy asarni tahlil qilish, epik, lirik, dramatik asarlarni o`rganish usullari, yozuvchi tarjimai holini o`rganish, adabiy – nazariy tushunchalarni o`rganishga oid metodik fikrlar berilgan.

Davlat ta`lim standartlari ta`lim mazmunini, shakllar, vositalar, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta`lim mazmunining o`zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko`rsatayotgan turli muassasalarda

(davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. Davlat ta'lim standartlari o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlar, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlar yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv rejasi davlat ta'lim standartlarining tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim sohalarini me'yorlashni hamda maktabning moliyaviy taminotini belgilashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir. Tayanch o'quv rejasi predmeti bo'yicha beriladigan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining minimum hajmidagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan o'quv predmeti bo'yicha davlat standartlariga muvofiq beriladiga ta'lim mazmunini aniqlashga asos bo'ladi.²⁹

Metodist olim Q.Yo'ldoshevning “ Adabiy saboqlar “(T,2004) qo'llanmasi umumta'lim maktablarida badiiy adabiyotni o'qitishning muhim muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari, Lutfiy, Nodira g'azallari, Oybekning “Navoiy” romanini o'rganishning usullariga oid nazariy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan. Bu ma'lumotlar adabiyot o'qituvchilarining faoliyatlari uchun zaruriy dastur hisoblanadi. SamDU dotsentlari F.Badriyev, A.Xudoyberdiyevlar tomonidan 1998-2003-yillarda yaratilgan “Adabiyot o'qitish metodikasi” qo'llanmasida umumta'lim maktablarida badiiy adabiyotni o'qitishning nazariy va amaliy masalalariga oid fikrlar, metodika fanining tarixiy bosqichlar, boshqa fanlar bilan aloqasi, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish, badiiy asar tahlili, badiiy asar janrini o'rganish, yozuvchi tarjimai holini o'rganishga oid ma'lumotlar keltirilgan, ilg'or maktab tajribalari umumlashtirilgan.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, mamlakatimizning mustaqillik davri va undan keyin yaratilgan darslik va metodik qo'llanmalarda umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning samarali usullari bilan bog'liq bo'lgan ilmiy fikrlar bayon etilgani holda, shuningdek, mumtoz adabiyotimiz va hozirgi davr adiblari ijodiga oid eng yaxshi namunalarni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan fikrlar

²⁹ТўхлиевБ. Адабиётўқитишметодикаси. – Т. 2010, 43-44-б.

keltirilgan holda, buyuk shoir, mohir tarjimon Ogahiyning hayoti va ijodiy faoliyatini monografik tarzda o'rganishning usullari bilan bog'liq bo'lgan nazariy fikrlar, dars namunalari kam uchraydi. Bu esa o'z navbatida buyuk shoir ijodini o'rganishda o'qituvchilarga qiyinchilik tug'diradi.

Keyingi yillarda yozuvchilar tarjimai holini o'rganishda metodist olimlar o'rtasida turli xil fikrlar mavjud: kimdir darsliklarda yozuvchilarning tarjimai holini keng yoritish kerak desa, kimdir hatto "shart emas" degan fikrni oldinga suradi. Aslida ijodkorlarning tarjimai holini o'rganishga kengroq o'rin berilishi uning ijodini to'laroq tushinib olishdan tashqari yozuvchining estetik olami, falsafiy qarashlari, hayotga munosabati eng muhimi, ijodiy metodi va poetik mahoratini o'rganish, tushunib olish imkonini beradi.

Adabiyot o'qitish metodikasi darsligi va qo'llanmalarda yozuvchi-ijodkorning tarjimai holini o'rganishga oid qimmatli fikrlar bayon etilgan. Ayniqsa, taniqli metodist olim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Asqar Zunnunovning "Maktada adabiyot o'qitish metodikasi" (Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 1991) darsligi, shuningdek, metodist olim Boqijon To'xliyevning "Adabiyot o'qitish metodikasi" (Toshkent, 2010) qo'llanmasi, Sam DU dotsentlari F. Badriyev, A. Xudoyberdiyevlarning "Adabiyot o'qitish metodikasi" (Samarqand 2003) qo'llanmalarida yozuvchi tarjimai holini o'rganishga oid ilmiy-metodik fikrlar talqin etilgan. Chunonchi, prof. A. Zunnunov bu haqida quyidagilarni yozadi:

"Yuqori sinflarda yozuvchining tarjimai holi ijodiy faoliyati bilan bog'liq holda o'rganiladi. Bunday mavzuni o'rganishda o'qituvchilarning diqqat-e'tibori yozuvchining adabiyot rivojida, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rniga, ijodiy komolotining asosiy bosqichlariga jalb etiladi. Bu masalalar bo'yicha ma'lumotni o'qituvchilar, asosan, darsda yozuvchining hayoti va ijodi haqida qilinadigan ma'ruzasida oladilar, ayrim asarlarini o'qish va o'rganish bilan u haqida yanada kengroq tushunchaga ega bo'ladilar.

Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda uning boshqa yozuvchilar bilan adabiy aloqasiga, ular ijodiga bo'lgan munosabatiga ahamiyat beriladi. Chunki har bir yozuvchi faqat o'z zamondoshlari bilan cheklanmasdan, o'zidan oldin yashab,

ijod etgan yozuvchilarning adabiy merosini o'rganadi, ularning eng yaxshi traditsiyalarini ijodiy davom ettiradi. Shu ma'noda u o'tmish odatlar ijodining davomchisi, kelajak ijodkorlarning ustози, yosh avlodning tarbiyachisi hisoblanadi.

Yuqori sinflarda esa yozuvchining ijodiy yo'li to'la o'rganiladi, programma asosida bir yoki bir necha asari atroflicha tahlil qilinadi.

Ijodkor tarjimai holini o'rganishning nazariy-ilmiy masalasi prof. Boqijon To'xliyevning yuqorida tilga olingan qo'llanmasida aniq misollar asosida talqin etilgan.

Badiiy asarlarni o'rganishda uning muallifi haqidagi ma'lumotlar ham ayriча ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar ko'pinча, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to'g'ri belgilashda yordam beradi. Mazkur ma'lumotlar qayerlarda olinadi?

Ularni adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimai hollaridan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holida yetib kelgan manbalardan olish mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir.

Yozuvchi, san'atkor oddiy kishilardan shu bilan ham farq etadiki, uning asarlarida hayot hodisalari, faktlari faqat qayd etilibgina qolmaydi. Har gal biror hodisa, fakt haqidagi hikoya – yozuvchining, san'atkorning shu narsaga, hodisaga, pirovardida kishilarga ijobiy yoki salbiy munosabati bilan sug'orilgan bo'ladi. Bu "munosabat omili" shunchalik muhimki, faqat u gina bizga hodisa haqida haqqoniy, mukammal, yorqin tasavvur bera oladi. San'atkorning ijobiy munosabati, mehri va muhabbat bilan qizdirilgan hayotiy fakt, xuddi endigina cho'g'dan olingan temirdek, o'z rangi, harorati, fazilatlarі bilan hayratga solishi va tahsinimizga sazovor bo'lishi mumkin.³⁰

Shuni ham qayd qilish kerakki, bugungi kundagi adabiyot o'qitish masalasi sho'rolar davrida yaratilgan darslik va ilmiy manbalar tubdan farq qiladi. Bu farq

³⁰Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т. 2010, 111-115-б.

darslikning didaktik talablardan tashqari ilmiy-ma'naviy masalalarini o'z ichiga olishi bilan belgilanadi.

60-70-yillarda O'zbekistonda adabiyot o'qitish metodikasi sohasida samarali ishlar qilinganini qayd qilish lozim bo'ladi. Bu yillarda metodist olimlardan S.Dolimov, A.Zunnunov, Q.Ahmedov kabi ko'p yillar maktabda ishlab, tajriba orttirgan, til va adabiyot fanidan dars bergan tajribali o'qituvchilar o'z kuzatish va tajribalarini ilmiy ish bilan bog'lab, metodik qo'llanmalar yaratdi. Chunonchi, A.Zunnunov uzoq vaqt olib borgan tajribalarini yakunlab "G'afur G'ulomning hayoti va ijodini X sinfda o'rganish" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi, 1962-yilda uning "G'afur G'ulomning hayoti va ijodiy faoliyatini yuqori sinflarda o'rganish" nomli metodik qo'llanmasi nashr etildi. Olim tomonidan "O'zbek adabiyoti metodikasi tarixi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va shu nomli kitobni 1980-yilda "O'qituvchi" nashriyotidan chiqaradi. Zahmatkash olim tomonidan 1968-yilda "V–X sinflarda adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish", "Maktabda badiiy asar tahlili" kabi metodik qo'llanmalari chop etildi. Professor A.Zunnunov keyinchalik "Pedagogika nazariyasi", "Pedagogika tarixi" darsliklarini yaratdi. Shuningdek, "Adabiyot o'qitish metodikasi" 1985-1991-yillarda ettirdi. Darslikda "Adabiyot o'qitish metodikasi" fanining maqsad, vazifalari, badiiy asar tahlili, adabiy o'qish mashg'ulotlarining tur va metodlari, yozuvchi tarjimayi holini o'rganish kabi masalalar nazariy va maktab tajribalari misolida yoritilgan.

Subutoy Dolimov, Hamidulla Ubaydullaev, Quadrat Ahmedovlarning hammuallifligida yaratilgan "Adabiyot o'qitish metodikasi"¹ – universitet va institutlarning filologiya fakulteti o'qituvchi va talabalariga uslubiy qo'llanmasi-adabiy ta'lim mazmunini boyitishga, yangi metod va usullar tizimini ommalashtirishga, adabiy ta'lim maqsad va vazifalarining ro'yobini amalga oshirishda juda muhim qo'llanma sifatida maydonga kelgan.

Adabiyot metodikasini o'rganish u haqida ilmiy maqola, metodik qo'llanma va darslik yaratishga, o'tgan asrning 60-80-2000-yillarida katta ishlar qilingan. V–

¹Долимов С, Убайдуллаев Х, Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т.: "Ўқитувчи". 1967.400-403-б.

VII sinflar uchun “Adabiyot” darsliklari, IX sinflar uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi” yaratilgan. Respublikamizda badiiy adabiyotni o‘qitishga oid ilmiy metodik konferensiyalar o‘tkazilgan, pedagogik ishlar tashkil etilgan.

Bu borada metodist olimlardan professorlar: G‘.Karimov, A.Zunnunov, S.Dolimov, shuningdek, dotsentlardan: Q.Ahmedov, H.Ubaydullayev, R.Usmonov, K.Jo‘rayev va universitetimizning metodist olimi F.Badriyevlar tomonidan adabiyot o‘qitishning ilmiy – nazariy va amaliy masalalariga oid darslik va metodik qo‘llanmalar yaratilgan. Eng muhimi, o‘sha vaqtdagi maktablarning ahvoli va ayrim darsliklar tahlil etilgan. Bu borada taniqli metodist olim Asqar Zunnunovning fikrlari hozirgi kunda ham o‘zining qimmatini yo‘qotgan emas.

V – VIII sinf xrestomatiyalarida adabiy asarning badiiy qimmati va tili haqida, umumiy qoida tusiga kirib qolgan tartib bo‘yicha, asosiy obrazlarga qisqacha xarakteristika berilgach, kompazitsiyasi mohirona qurilgan, badiiy vositalardan yozuvchi unumli foydalangan, tili ravon kabi umumiy gaplar bilan chegaralanib, ular xarakterli faktlar orqali namoyish qilinadi, natijada o‘quvchilarda barcha asarlar bir xilda yozilar ekan, degan tushuncha tug‘iladi. Darslikda asarning badiiy qimmati asosiy qismlardan uzib olingan holda tahlil qilinadi. Unda obrazlardagi ziddiyatni ochish o‘rniga, ularning ijtimoiy qiyofasi, asarda peyzaj tasviri, tili haqida gapiriladi. Ayrim darsliklardagi yana muhim bir kamchilik shundaki, ularda klassik adabiyotdan olingan namunalar mazmuni yetarli, to‘liq yoritilmagan.

V-VIII sinf darsliklarida adabiy tekstlar yuzasidan berilgan savol va topshiriqlar ko‘proq asar mazmunini hikoya qilish, yodlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmasini o‘stirishga, asarning badiiyligini chuqur his etishga yetarli yordam bermaydi. Avtorlar savol va topshiriqlarni berishda o‘quvchilarning o‘qish mashg‘ulotlari bilan ortiqcha band bo‘lib qolishlariga yetarli e‘tibor bermaganlar.

IX-X sinf darsliklaridagi eng muhim kamchilik yozuvchining badiiy mahorati, o‘ziga xos uslubi, murakkab nazariy tushunchalarning yetarli yoritilmaganligi, obrazlarning badiiy vositalar orqali yetarli ochilmaganligida ko‘rinadi. “O‘zbek adabiyoti tarixi “ (1967-yil) darsligida Furqatning mashhur

“Sayding qo‘yaber, sayyod” musaddasining g‘oyaviy mazmuni yoritilgani holda, badiiy xususiyati ochilmagan, shoir qo‘llagan istiora, o‘xshatish va sifatlashlar aniq misollarda, obrazlarga bog‘liq holda yoritilmagan.

Darsliklarda, ayniqsa, adabiyot darsliklarining tili sodda, yorqin, aniq, qisqa va ta’sirchan bo‘lishi kerak. Mavjud darslik mualliflari bu masalaga ma’lum darajada e’tibor bergan bo‘lsalar ham, darsliklarda o‘quvchilar uchun tushunish qiyin bo‘lgan jumlar, bayonlar bor. Ularda obzor materiallari ko‘p, tarixiy faktlar, joylar va kishilar nomi juda ko‘pki, ularni esda qoldirish qiyin. Yuqori sinf darsliklarida obzor materiallarining ko‘pligi darsda turli metod va usullarni qo‘llashga imkoniyat bermaydi, sinfda esa ko‘proq ma’ruza usuli hukmronlik qiladi.³¹

Yuqorida tilga olingan metodik qo‘llanmalarining ilmiy-metodik va amaliy ahamiyatga ega ekanini nazarda tutgan prof. A. Zunnunov maktabda adabiyotdan, sinfdan tashqari ishlarning nihoyatda samaradorligini qayd qilgan holda F.Badriyevning “Yuqori sinflarda adabiyotdan sinfdan tashqari ishlar “ nomli metodik qo‘llanmasi haqida quyidagi metodik fikrlarni bayon etadi. Qo‘llanmada muallif sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilishda kitobxonlar qiziqishini o‘rganish muhim rol o‘ynashini va bu ishni amalga oshirishning forma va metodlarni yoritdi. F.Badriyevning ilmiy – metodik, amaliy – praktik xususiyatga ega bo‘lgan ushbu qo‘llanmasi maktabda sinfdan tashqari o‘qishni uyushtirish va rivojlantirishda o‘qituvchilarga katta yordam beradi.

Umuman olganda, o‘tgan asrning 60 – 80 va 2000- yillarida yaratilgan darslik va metodik qo‘llanmalarda adabiyot darslarini tashkil etishning samarali usullariga oid ilmiy –nazariy va metodik xarakterga ega bo‘lganligi bilan katta ahamiyatga ega ekanligini qayd qilish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan darslik va metodik qo‘llanmalar mustaqillik davrida adabiyot darsliklarini yaratish, eng muhimi badiiy adabiyot vositasida yoshlarning ma’naviy – estetik olamini boyitishga ma’lum darajada xizmat qilishini ta’kidlash lozim bo‘ladi.

³¹ Зуннунов А. Ўзбек адабиёти методикаси тарихидан очерklar.- Т.: “Ўқитувчи”, 1980, 127-131- б.

Adabiy ta'limda yaratilgan darsliklar avlodiga e'tibor qaratganimizda shunga guvoh bo'ldikki, Ogahiy ijodini o'rganish, uning asarlari g'oyasi, mazmuni bilan tanishish, o'uvchilarning adib asarlari orqali badiiy idrokini o'stirish salmoqli yillarni tashkil etadi. Masalan, 10-sinf o'quvchilari uchun 1997-yil chop etilgan "O'zbek adabiyoti"³²//darslik-majmua//(1997) darsligida Ogahiyning "Taviz ul-oshiqin" devoning debochasida keltirilgan hayot faoliyati haqida qisqa ma'lumot berilgan. Shundan so'ng shoirning g'azallari, mustazod, muxammas, qit'a, ruboiylaridan namunalar, Ogahnoma qasidasi, Sa'diyning "Guliston" asarining Ogahiy tarjimasining 9-bobidan parcha keltirilgan³³. 9-sinflar uchun mo'ljallangan "Adabiyot"³⁴ darsligining 2006-yilgi nashrida Ogahiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar sifatida uning hayot yo'li va lirikasidan namunalar keltirilgan³⁵.

Bugungi kunga kelib umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey darsliklarida Ogahiy ijodini o'rganish izchil davom etmoqda. 9-sinf "Adabiyot"³⁶ darsligida Ogahiy lirikasidan namunalar berilgan va rejada uni o'rganish uchun 4 soat vaqt ajratilgan. Akademik litseylarning II bosqich talabalari uchun yozilgan "Adabiyot"³⁷ darsligidan Ogahiyning g'azallari joy olgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining IX sinflar uchun mo'ljallangan darsligida Ogahiy hayoti va ijodiga oid quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

MUHAMMAD RIZO OGAHIY

(1809-1874)

Shoir, tarjimon, tarixnavis hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy xalqimiz tarixida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan serqirra iste'dod sohibidir. U ijodining ko'lami, she'riyatining ko'rkamligi va badiiy salmog'i bilan Navoiydan keyingi o'rinda turuvchi sermahsul va serqirra shoir hisoblanadi. Ayni paytda xalqimiz o'tmishini haqqoniy aks ettirgan bir necha nodir asarlari bilan tarix ilmi

³²Ўзбек адабиёти 10-синф. – Т: Ўқитувчи, 1997.299-бет.

³³Qarang:Ўзбек адабиёти 10-синф дарслиги. – Т: Ўқитувчи, 1997.299-бет.

³⁴ADABIYOT 9-sinf. –Т.:Yangiyo'l Poligraph service.2006,141-bet.

³⁵Qarang:ADABIYOT 9-sinf. –Т.:Yangiyo'l Poligraph service.2006,141-bet.

³⁶ADABIYOT 9-sinf.-Т.:Yangiyo'l Poligraph service.20014,130-bet.

³⁷ADABIYOT(majmua)Akademik litseylarning II bosqich o'quvchilari uchun. –Т.:2015,344-bet.

taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan olim sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, uning juda ko'plab tarixiy va badiiy asarlarni fors tilidan ona tilimizga o'girib, ularni xalqimizning ma'naviy merosiga aylantirishdagi xizmatlari tahsinga loyiqdir.

Ogahiy 1809- yili 17- dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi. Shu yerda boshlang'ich ma'lumotni oladi. Yoshligida otasi vafot etib, adabiyotimizning yana bir yorqin siymosi bo'lmish amakisi Munisning tarbiyasida bo'ldi. U maktab, keyinchalik madrasa tahsili davomida arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o'rgandi. 1829- yilda Munis vafot etgach, hukmdor Olloqulixon uning o'rniga Ogahiyning mirob (suv ishlari boshqaruvchisi) etib tayinlaydi. Suv tanqis bo'lgan Xorazmda miroblik nihoyatda mas'uliyatli vazifa bo'lib, uni ishonchli va halol odam boshqarishi lozim edi. Shu davrdan Ogahiyning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati boshlanadi. U davlat ishlari bilan mashg'ul bo'lar ekan, badiiy ijod hamda ilmiy faoliyatini to'xtatmadi. Saroy tarixchisi vazifasini ham olib borayotgan Ogahiy 1839- yilda Munis boshlab qo'ygan «Firdavs ul-iqbol» (Iqbol bog'i) asarini davom ettirib, Xiva xonligining 1825- yilgacha bo'lgan tarixini yozib tugatdi. 1844- yilda xonlik tarixini shu yilgacha bo'lgan voqealarini o'z ichiga olgan «Riyo'z ud-davla» (Saodat bog'lari) kitobini tamomladi.

1845- yildan Ogahiy hayotidagi og'ir va musibatli davr boshlanadi. Shu yili miroblik ishlari bilan safarda yurganda, tasodif tufayli oyog'i qattiq shikastlanadi va hali yigit yoshidayoq to'shakka bog'lanib qoladi. Shu dard azobini tortayotgan shoir umr yo'ldoshidan ham ajraladi. 1857- yilda miroblikdan iste'fo berishga majbur bo'ladi. Lekin bu musibatlar oldida u chekinmadi. Kuchli iroda, hayotni sevishi Ogahiyning ijodga, izlanishga undadi. 1846- yilda «Zubdat ul-tavorix» («Tarixlar qaymog'i»), 1847-1855- yillarda esa «Jome ul-voqeoti sultoniyy» («Sultonlik voqealarining yig'indisi») tarixiy asarlarini yozdi. Tarjimalar bilan shug'ullanib, Kaykovusning «Qobusnoma», Nizomiy Ganjaviyning «Haft paykar», Sa'diy Sheroziyning «Guliston», Badriddin Hiloliyning «Shoh va gado», Abdurahmon Jomiyning «Yusuf va Zulayxo» va boshqa qator asarlarni o'zbekchalashtirdi. XIX

asrning oltmishinchi yillarida «Gulshani davlat» va «Shohidi iqbol» («Baxt shohidi») tarixiy asarlarini yozdi.

Ogahiy 1874- yili vafot etdi.

Ogahiyning asosiy she'riy merosi ona tilida yozilgan bo'lib, «Ta'viz ul-oshiqin» devonida to'plangan. «Ta'viz ul-oshiqin» — «Oshiqlar tumori» degani. Devon ma'rifatparvar shoh va shoir Feruz — Muhammad Rahimxon Soniy (ikkinchi)ning taklifi va talabi bilan tuzilgan. Bu devon XIX asr o'zbek she'riyatining benazir namunasi hisoblanadi. «Ta'viz ul-oshiqin»da shoirning yigirmadan ortiq janrdagi sal kam yigirma ming misrali lirik merosi jamlangan. Ularning 1300 misradan ortig'i fors tilida bitilgan bo'lib, bu Ogahiyning zullisonaynlik an'anasini munosib davom ettirganligining yorqin dalilidir.

Ogahiy devonidan turli: ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri va boshqa mavzudagi she'rlar joy olgan. Lekin ularning aksariyati ishqiy mavzudadir.

Shoir ijodida tabiat tasviriga bag'ishlangan bir qator g'azallar bor. Qish va bahor tasviri chizilgan bu she'rlarda Ogahiyning peyzaj ustasi, o'tkir nigoh egasi ekanligi namoyon bo'ladi. Fasl tarovati, go'zalligini berishda shoir tashbih, tashhis (jonlantirish), sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarini qo'llaydi. «O'yla yetkurdi jahong'a ziynat-u oro bahor» g'azalida o'qiymiz: **«Obi hayvondek suzuk suv har taraf aylab ravon, Qildi sahrog'a tarovat o'zgacha paydo bahor».**

Suvni «obi hayvon» — tiriklik suviga o'xshatish qadimdan bor. Lekin uni suzuk deb sifatlash adabiyotda yangilik edi. Tashxis (jonlantirish) san'atini mohirona qo'llagan shoir tog'lardan mayin oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go'zalga o'xshatadi. Bahor ana shu suzuk suvi bilan sahroga o'zgacha tarovat bag'ishlagan. Keyingi misralarda bahoriy yel rayhonlarga Masihdek «toza jon» ato qilgani, gul yuzi ochilib, qumri-yu bulbullarning unga vola-yu shaydo bo'lganlari, lola soqiysi qo'lidan ishrat ahliga qadah tutilgani kabi tasvirlar orqali bahor ko'tarinki zavq, hayojonli shavq bilan vasf qilinadi. Bu go'zalliklarni madh etgan shoir uni g'animat bilib, qadrlashga chorlaydi: **«Gulshan ichra bazm etib jomi tarab no'sh aylali Kim, g'animatdur necha kun, ey qadi ra'no, bahor».** Shuningdek, «Baland aylab quyoshg'a poya navro'z», «Bahor ayyomi bo'lmish o'ylakim bog'i Eram

sahro» gʻazallarida ham bu koʻrkam faslning beqiyos nazokatlari kuylanadi. «Ilohi, har kunning navroʻz boʻlsin» gʻazalida bu sheʼr yaratilgandan buyon barchaning diliga jo boʻlgan ohorli yangi yil tilaklari izhor etilgan:

Ilohi, har kunning navroʻz boʻlsun,
Hamisha toleʼing feruz boʻlsun.

Boʻlub ayyomi navroʻzing muborak,
Zamiring inbisotanduz boʻlsun.

«Taʼviz ul-oshiqin»dagi ishqiy gʻazallar nafaqat Ogahiy ijodining, balki butun oʻzbek mumtoz adabiyotining sara namunalari hisoblanadi. «Yuzung ochkim, quyosh sadqang boʻlub boshingdin aylansun», «Mushkin qoshining hayʼati ul chashmi jallod ustina», «Ey shoʻx, koʻzi qoshinga olam gado, man ham gado» gʻazallari Ogahiyning yuksak badiiy mahoratini, chinakam sanʼatkor shoir ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, «Ustuna» radifli gʻazali oʻzining jozibasi, badiiy kashfiyotlarga boyligi bilan ajralib turadi: **«Mushkin qoshini hayʼati ul chashmi jallod ustina, Qatlim uchun nas keltirur, «nun» eltibon «sod» ustuna».**

Arab alifbosida «nun» qoshga, «sod» koʻzga oʻxshashligidan foydalanib, shoir yor goʻzalligining oʻziga xos tasvirini yaratadi. «Nun»ni «sod»ning ustiga qoʻyilsa (yaʼni avval «nun», keyin unga qoʻshib «sod» yozilsa), «nas», yaʼni «hukm» soʻzi hosil boʻladi. Bu hukm (nas)ga koʻra oshiq qatl etilishi kerak. Chunki «nun»ga oʻxshash mushk rangli qora qosh bilan «sod»ga oʻxshash koʻz oʻzlarining yor yuzidagi koʻrinishi (hayʼati) bilan bu hukmni chiqarganlar. Ogahiygacha koʻz-u qoshni mazkur harflarga tashbeh qilish, chashm (koʻz)ni jallod deyish anʼanaviy tasvir edi. Lekin harflardan soʻz yasab va uni mazmunga, tasvirga tadbiq etish — bu yangilik edi. Shoirning koʻp gʻazallarida mana shunday yuksak badiiyatga yoʻgʻrilgan baytlar uchraydi. Eʼtiborli jihati shundaki, asosan ishqiy mavzudagi bunday gʻazallar bagʻriga falsafiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy mazmun ham ustalik bilan singdirib yuboriladi. Baʼzan gʻazallarda yor timsoli orqali, xususan lirik qahramonning unga murojaatida shohga xos xususiyatlar aks etadi. Masalan: **«Ey shah,**

karam aylar chogʻi teng tut yamon-u yaxshini, Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina» yoki «Aylansun» radifli gʻazalidagi

Chu bergung non ila osh, ey saxiy, sidq ahligʻa bergil,

Riyo-vu kizb ahli noning-u oshingdin aylansun

kabi baytlarda buni kuzatish mumkin. Shuningdek, shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari devondagi muxammas, musaddas, ruboiy, tarjiʻband va qasidalarida ham u yoki bu darajada oʻz aksini topgan. Xususan, «Dahr uyi bunyodikim, suvuzradur, mahkam emas» tarjiʻbandi tasavvufiy mazmunga yoʻgʻrilgan ijtimoiy-falsafiy ruhdagi asardir. Tarjiʻbandda dunyo omonat binoga, boʻyi, vafosi yoʻq gulshanga, jafokor tuban ayyoraga oʻxshatiladi va insonni unga koʻngil berib, aldanib qolmaslikka chaqiradi.

«Qasidai nasihat» esa Ogahiyning siyosat va davlatga munosabati, hukmdor fazilatlari va burch-vazifalari borasidagi mulohazalari bayon etilgan pandnomadir. Odatda qasidalarda biron-bir voqea yoki shaxs ulugʻlanadi, har tomonlama vasf qilinib, benuqson, ideal qiyofada tasvirlanadi. Ogahiyning asidasi esa odatdagi maqtoqlar tizmasidan iborat boʻlib qolmadi. U mazkur asarni yozishda oʻz oldiga aniq maqsad qoʻygan edi. Shunga koʻra adib qasida vositasida koʻpni koʻrgan donishmand, umr mazmunini anglagan faylasuf sifatida yosh xonga nasihatlar qiladi, davlatni boshqarish sanʼatidan saboq beradi. «Qasidai nasihat» adabiyotimiz tarixidagi siyosiy-didaktik lirikaning yorqin namunasi boʻlib qoldi.

Ogahiyning kichik sheʼriy janrlar: ruboiy, tuyuq, taʼrix, fard kabi shakllarda ham benazir ekanligiga guvoh boʻlamiz. Ayniqsa, musoviyattarafayn (ikki tomonlama teng, bir xil) shaklida yozilgan sheʼri adabiyotimiz tarixida juda ham uchraydigan hodisalardan deyish mumkin. Sheʼrni ikki xil — odatdagi yon tarafga hamda yuqoridan pastga tomon oʻqisangiz, bir xil matn hosil boʻlaveradi. Bu sheʼr bilan tanishang.

Ul	ochildi	xat-u	ruxsori
Ochildi	rayohinda	yuzi	gulnori

Xat-u	yuzi	besabr-u	man man
Ruxsori	gulnori	man man	zori

Ogahiy salaflari Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy hamda Munis kabi mumtoz adabiyotimiz yorqin siymolari an'analarini davom ettirdi, rivojlantirdi, yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitdi. Uning ijodi shoirlarimizning bir necha avlodi uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, darslikda Ogahiy lirikasidan namunalar keltirilgan. Jumladan, shoirning "Navro'z", "Ustina" radifli g'azali va uning tahlili, "Aylansun" radifli g'azali, tarji'bandi, tuyuqlaridan namunalar va "Ogahnoma" qasidasi keltirilgan. Mavzu so'ngida savol va topshiriqlar hamda nazariy ma'lumot sifatida tashxis san'ati keltirilgan³⁸.

Darslikdagi "Ustina" radifli g'azali tahlili quyidagicha berilgan:

"Ustina" radifli g'azali.

Mushkin qoshin/ing hay'ati/ ul chashmi jal/lod ustina,

Qatlim uchun/ «nas» kelturur/ «nun» eltibon/ «sod» ustina.

Qilg'il tamo/sho qomati/ zebosi bir/la orazin,

Gar ko'rmasang/ gul bo'lg'onin/ payvand sham/shod ustina.

Noz-u ado/u g'amzasi/ qasdim qilur/lar dam-badam,

Vah, muncha o/fatmu bo'lur/ bir odami/zod ustina.

Man xastag'a/ jon asramoq/ emdi erur/ dushvorkim,

Qotil ko'zi/ bedod etar/ har lahza be/dod ustina.

Ul gul yuzi/ shavqi bila/ shaydo ko'ngul/ shom-u sahar,

Bulbuldek ay/lar yuz navo/ ming nav'i far/yod ustina.

³⁸Qarang:9-sinf adabiyot

Boshimg'a yoq/qan g'am toshin/ mingdin biri/cha bo'lmag'ay,
Gardun agar/ming Besutun/ yog'dursa Far/hod ustina.

Ey shah, karam/ aylar chog'i/ teng tut yamon/-u yaxshini
Kim, mehr nu/ri teng tushar/ vayron-u o/bod ustina.

Xoki taning/ barbod o'lur/ oxir jahon/da necha yil
Sayr et Sulay/mondek agar/ taxting qurub/ bod³ ustina.

Ne jur'at il/a Ogahiy/ ochg'ay og'iz/ so'z dergakim,
Yuz xayli g'am/ qilmish hujum/ ul zor-u no/shod ustina.

G'azal o'zbek mumtoz adabiyotidagi eng mashhur asarlardan biridir. Unda yorning cheksiz go'zalligi ta'riflanadi, Lirik qahramonning ishqdagi o'rtanishlari tasvirlanadi. G'azalining birinchi batytidayoq Ogahiyning an'anana zaminida o'ziga xos yangilik, badiiy kashfiyotga erishish istagi namoyon bo'ladi.

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,

Qatlim uchun nas kelturur "nun" eltibon sod ustina.

Maq'tada ma'shuqaning qoshi va ko'zi ta'rif etilmoqda. "Mushkin" so'zi ham qoralik, ham xushbo'ylikni ifodalaydi. "Mushkin (xushbo'y va qora) qosh" tuklari, "chashmi jallod"- jallod ko'zlar ustida hay'at a'zolaridek saf tortishgan. Ko'zning qatl etuvchi, jon oluvchi jallod sifatida tasvirlanishi an'anaviy holat. "Mushkin qosh" iborasi ham an'anaviy. Biroq mushkin qosh tuklarining hay'at sifatida jonlantirilishi, jallod ko'zlar bilan ittifoq tuzdirilishi Ogahiyning ijodiy kashfiyotidir. Kashfiyotning qiyomga yetgan hosilasi shundaki, qoshlar ko'zlar bilan ittifoq tuzib, oshiqni qatl etish uchun hukm chiqaradilar. Bunin badiiy ifodasi ham juda maroqli. Bunda shoir harfiy o'yinlarsan'atidan foydalanadi. Qoshning "nun" harfiga qiyoslanishi, ko'zning esa "sod" harfiga taqqoslanishi ham adabiy an'ana. Lekin kamdan-kam san'atkor ushbu an'anani uddalab amalga oshira olgan. Boz ustiga Ogahiy qosh va ko'zning ittifoqini ifodalash uchun ularni ("nun" eltibon "sod" ustina) ostin-ustin joylashtiradi. Aslida ham qosh bilan ko'z shunday

joylashgan, Hamjihatlik birikuvida “nas” so’zi vujudga keladi. Arabcha bu so’z “hukm” degan ma’noni anglatadi. Baytning g’azalxon uchun sirli va sehrli jihati ham shunda. Demak, qoshlar hay’ati jallod ko’zga oshiqni qatl etish tog’risida shafqatsiz hukm chiqarib beradi.

Qilg’il tamosho qomati zebosi birla orazin,

Gar ko’rmasang gul bo’lg’onin payvand shashod ustina.

Ikkinchi baytning birinchi misrasida an’anviy tasvir va ifodalr yaqqol ko’zga tashlanadi. U o’xshatish uchun seviklining bo’yi bilan yuzidek yaxlit go’zallikni tabiatan topolmaydi. Shuning uchun bog;dorchilikdagi “payvand” usulini g’azalga olib kiradi. Gul-Yorning yuzidek yoniq vachiroyli, lekin unda shamshod daraxtidek ko’rkam qomat yo’q. Shamshod- qishin-yozin, umrbod yashnab turadigan xushqomat daraxt. Biroq yorning gulgun chehrasudek unda gul ochilmaydi. Tabiatda gulni shamshodga payvand etib ham bo’lmaydi. Yornig qaddi shamshod va yuzining gul kabi ekanligi va ular bir vujudda mujassamligi o’quvchi ko’z oldida gavdalanirish kerak. Shunda shoir tasavvur qudaratidan foydalanadi va g’azalxonga: “Agar shamshodning ustiga gul payvand bo’lmaganini ko’rmagan bo’lsang, bunday mo’jizani tabiatan izlamay ham qo’yaqolginda, yorning zebo qomatiga yarashiq gulgun yuzini tamosha qil!” deya murojaat etadi.

Yuqoridagi baytlar ,asosan, yor go’zalligini vasf etishga qaratilgan bo’lsa, 3-, 4-, 5- va 6-baytlar izhor uslubida bitilgan. Unda lirik qahramon kechinmalari ifodalangan. Ushbu baytlarning bari mubolag’a san’ati bilan sug’orilgan.

Oshiqning faryod-u fig’on chekishicha, mashuqning noz-u adov-u g’amzasi odamzodning bardosh va saboti yetmaydigan darajada qasd eetib, uning ustiga dam-badam ofat yog’diradi. Birinchi baytdagi qotilga farmon olgan qotil ko’z yana jonlanadi, oshiqning xasta joniga tahlika solib, bedod ustiga bedod etadi. Boyagi gul o’zining shavqi bila shaydo ko’ngilni o’rtaydi va u kech-yu kunduz bulbul kabi yuz navo, ming faryod chekadi. Mubolag’a misrama-misra kuchayib, oliy darajaga ko’tariladi. Ogahiy lirik qahramoni chekkan g’am yuklari shu qadar og’irki, agar falak farhodning ustifa yana ming Besutun yog’dirsam ham, Oshiq chekayotgan

g'am yukining mingdan biricha bo'lmaydi. Besutun-Farhod qazigan afsonaviy tog'.

G'azalning 7-, 8-baytlardagi oshiqona kechinmalar izhoridan chekiniladi. Falsafiy umulashma ruhidagi baytlar bitiladi. Ular birinchi baytdan kam bo'lmagan shohbayt darajasida vujudga kelgan:

Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod³ ustina.

Bu o'rindagi shohga murojaat Ogahiyning davr hukmdoriga qarata qo'llangan. Ogahiyning yuqoridagi satrlarida tasvirlangan ma'shuqadan chekkan sitamlari timsoli ham edi. Demak, tushunish mumkinki, shoir izhori dard vositasida ko'ngilni bo'shatib olgach, shohni adolatga chorlab, unga purhikmat pand aytadi. Marhamat va muruvvatko'rsatganingda, yomon-u yaxshiga teng munosabatda bo'lgan, degan fikrni chiroyli she'riy asoslash uchun oftob o'z nuruni vayrona va obod yerlarga teng sochishni misol qilib keltiradi. Quyoshdek yuksak martabada o'tirgan amaldorni Sulaymonpodshodek taxtni shamol ustiga qo'ndirib, bu olamdan yeldek sayr etib o'tsa ham oxir-oqibatda tanasi tuproqqa aylanishi va yelga sovirilishidan ogohlantiradi. Shoir g'azalni yana ichki kechinalari izhori bilan tugallaydi:

Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim,
Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zor-u noshod ustina.

Bu misaralari g'amning yuz lashkari hujum qilib turganida, "zor-u noshod" shoir g'azalxonlikni davom ettirishga jur'at topolmay, so'zni muxtasar qilib qo'ya qolganidan dalolat beradi.

Dasturda ko`zda tutilgan va darslikka kiritilgan yuqoridagi materiallarni quyidagicha taqsimlash mumkin: Ogahiy hayoti va ijodiy merosi, ijodining bosh tamoyillari haqida “Ilohi har kuning navro`z bo`lsin” g`azalini o`rgatish-1soat; shoining boshqa to`rt g`azalini tahlillash-1soat; “Dahr uyi bunyodikim...” tarji`bandi va kichik janrdagi asarlardan namunalarni o`rgatish-1soat; “Ogohnoma” yoki “Qasidai nasihat” asari tahlili-1soat.

To`xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. boshchiligidagi akademik litseylarning II bosqich o`quvchilari uchun tayyorlangan adabiyot darsligida esa Ogahiy hayoti va ijodiga oid ma`lumotlar qayd etilgan. Mazkur darslikda shoirning hayot faoliyatiga oid ma`lumotlar hajmi qisqa bo`lib, lirikasiga keng e`tibor qaratilgan. Darslikda Ogahiy hayotiga oid ma`lumotlar quyidagicha berilgan:

MUHAMMAD RIZO OGAHIY

(1809-1874)

Muhammad Rizo Erniyozbek o`g`li Ogahiy ko`p qirrali iste`dod sohiblaridan bo`lgan. U o`z nomini tarixchi olim, mohir tarjimon, hassos shoir sifatida qoldirgan. Uning otasi mirob bo`lgan. U Xorazmning bosh mirobi Munis Xorazmiyning jiyani edi. Munis vafotidan keyin u mana shu lavozimga tayinlangan. Kutilmaganda otdan yiqilib, oyog`i lang bo`lib qoladi (1842), keyinchalik (1857) esa miroblik vazifasidan iste`fo beradi.

Ogahiy lirik shoir sifatida el hurmatiga sazovor bo`ladi. Uning “taviz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tmori”) devoni mashhurdir. Devonga o`zbekcha she`rlar bilan birga fors-tojik tilida yaratilgan asarlari ham kiritilgan.

Ogahiyning tarixiy asarlari “Riyozi ud-davla” (“Saltanat bog`lari”), “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog`i”), “Gulshani davlat” (“Davlat gulshani”) va boshqalarda Xorazmda yashagan o`zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq xalqlarining tarixi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotlari, ularning boshqa xonliklar bilan munosabatlariga oid tarixiy hodisalar aks etgan.

Adib bir qator asarlarni o`zbek tiliga tarjima qilgan. Ular orasida tarixiy (Mirxondning “Ravzat us-safo”), Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye”, Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” va boshqalar), badiiy (“Guliston” (Sa`diy), “Yusuf va

Zulayho”(Jomiy),”Shoh va gado”(Hiloliy),”Haft paykar”(Nizomiy) va boshqalar) asarlar mavjud.

Darslikda Ogahiy lirikasidan ham namunalar berilgan bo`lib, unda shoirning “Sallamno”, “Ey, sho`x...”, “Bizki bukun jahon aro...”, “Ishrat mayin...”, “Mehri ruxsoringki...”, “Qish”, “Navro`z bo`lsun”, “Shoiri diqqatshioringman...”, “Ne ajab...”, “Navro`z erur”, “Kimki rohat no`shidin bir qatra ichti...”, “Bashar xayli...”, “Mujda keldi...”, “Chashmi jodudur...”, “Bahor”, “Bu qish...”, “Xarob o`lsun...”, “Dardi dilim ango dedim...”, “Ustina”, “Navro`z”, “Doshhovli tasviri” radifli g`azallari ham keltirilgan³⁹.

Muhammad Rizo Ogahiy hayoti va ijodini o`rganish ko`lamini kengaytirish, uning lirikasini o`rganishga yangilangan pedagogik tafakkur asosida yondashib, shoir lirikasi vositasida o`quvchilarda ma`naviy-mafkuraviy immunitetlarni yanada shakllantirish adabiy ta`lim oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Biz ishimizning keyingi bosqichida adabiy ta`lim jarayonida Ogahiy hayoti va ijodini o`rganish yuzasidan to`planayotgan yangi metod va usullar tavsifini keltirishga hamda shoir ijodini o`rganish yuzasidan bizning yangicha yondashuvlarimizga alohida e`tiborimizni qaratamiz.

³⁹Qarang:Akademik litsey darsliogi

2.2. Ogahiy hayoti va ijodini o`rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarining o`quvchilari Ogahiy hayoti va ijodi bilan 9-sinfda tanishadilar. O`quv rejasiga muvofiq 9-sinfda Ogahiy ijodini o`rganish uchun 4 soat vaqt ajratilgan. Akademik litseyning II bosqich talabalari uchun mo`ljallangan “Adabiyot” darsligida shoir ijodini o`rganishga esa 2 soat vaqt ajratilgan.

Amaliyotda shoirning hayoti va ijodini o`rganish yuzasidan boy tajribalar to`plangan. O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali “Til va adabiyot ta`limi” da shoir ijodini o`rganish yuzasidan qator yillar davomida turkum maqolalar berilgan: Q.Sultonovanning “Ogahiyning “Gulshani davlat” asari haqida”⁴⁰, Z. Hamidovning “Ogahiy she`riyatining tili xususida”<sup>41</sup>, Q.Sultonovanning “Gulshani davlat” asarida saj san`ati”⁴², H.Tojinazarovanning “Ogahiy lirikasining badiiy-lisoniy tahlili”⁴³, A. Atayevning “Ogahiyning “Jome`ul-voqeoti sultoniy” asarida harbiy terminlar”<sup>44</sup>, S. Allaberganovanning “Buyuk alloma” (Muhammad Rizo Ogahiy tavalludining 200 yilligiga bag`ishlab o`tkazilgan bayram ssenariysi)<sup>45</sup>, S. Rajabovanning “Ogahiyning “Ustina” radifli g`azali tahlili”⁴⁶, L.Sagatovanning “Ogahiy she`riyatida arxaizmlar”<sup>47</sup>, A.Atayevning “Ogahiyning “Jome` ul-voqeoti Sultoniy” asaridagi “xonadon” va

⁴⁰ Султонова Қ. Огаҳийнинг “ Гулшани давлат” асари ҳақида . // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2009, № 3, 76-77-бетлар.

⁴¹ Ҳамидов З. Огаҳий шеърятининг тили хусусида . // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2009, № 10, 74-80-бетлар.

⁴² Султонова Қ. “ Гулшани давлат” асарида саж санъати. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2010, № 5, 30-36-бетлар.

⁴³ Тожинаярова Х. Огаҳий лирикасининг бадий-лисоний таҳлили . // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2010, № 6, 22-25-бетлар.

⁴⁴ Атаев А. Огаҳийнинг “Жомеъ ул воқеоти султоний” асарида ҳарбий терминлар . // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2009, № 11, 64-68-бетлар.

⁴⁵ Аллаберганова С. Огаҳийнинг Буюк аллома. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2009, № 12, 73-84-бетлар.

⁴⁶ Ражабова С. Огаҳийнинг “ Устина” радибли ғазали таҳлили. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2013, № 11, 15-16-бетлар.

⁴⁷ Сагатова Л. Огаҳий шеърятда архаизмлар . // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2012, № 10, 39-41-бетлар.

“dudmon” soʻzlari xususida”⁴⁸ kabi ilmiy hamda metodik maqolalarda shoir faoliyatiga eʼtibor qaratilgan.

Istiqlool sharofati bilan taʼlim jarayonida tub burilishlar, ijobiy oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangicha pedagogik tafakkur, oʻqish va oʻrgatishga boʻlgan munosabatlarning yuksalishi, taʼlim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining kirib kelishi, noanʼanaviy, innovatsion, interfaol metod va usullardan, pedagogik texnologiyalardan foydalanish koʻlaminig kengayib borayotgani, avvalo, oʻqituvchilardan oʻz ustida koʻproq izlanish, oʻrganishni; bilimlarini muttasil oshirib borish zaruratini; yangi axborot vositalari, kompyuter texnologiyasini mukammal oʻrganishni; xorijiy tillarni oʻzlashtirib, dars jaryonida fanlararo, taʼlim jarayonlariaro aloqani –integratsiyani takomillashtirishni davriy zarurat sifatida taqozo etmoqda. Bu narsa adabiy taʼlim jarayoniga, xususan, Ogahiyhayoti va ijodini oʻrganishga ham oʻzining taʼsirini koʻrsatadi.

Biz metodist olimlarimizning, ilgʻor pedagoglarimizning Ogahiy hayot va ijodini, uning lirikasini oʻrganish yuzasidan ishlab chiqqan uslubiy tavsiyalar tizimini, avvalo, eʼtirof etgan holda, ularning mehnatlarini qadrlab, pedagogik jarayonlarda keng foydalanilayotganini taʼkidlagan holda, oʻz fikr-mulohazalarimizni, shoir asarlarini oʻrganishga yangicha yondashuvlarimizni bildirmoqchimiz, amaliyotga tavsiya etmoqchimiz.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinf adabiyotdan oʻquv dasturida Ogahiy ijodini oʻrganish uchun 4 soat vaqt ajratilgan. Oʻquvchilar darsning 1-soatida Ogahiy hayoti va ijodiy merosi, ijodining bosh tamoyillari haqida “Ilohi har kuning navroʻz boʻlsin” gʻazalini oʻganadilar. 2-soatida esa ular shoirning darslikdagi boshqa gʻazalini tahlil qiladilar. Darsning 3-soatida Ogahiyning “Dahr uyi bunyodikim...” tarjiʼbandi va kichik janrdagi asarlaridan namunalar oʻrgansa, 4-soatda shoirning “Ogohnoma” yoki “Qasidai nasihat” asarini tahlil qiladilar.

Odatdagidek, namuna uchun birinchi soatda oʻtiladigan mashgʻulotning pedagogik maqsadlari quyidagicha belgilab olinadi: tarbiyaviy maqsad-

⁴⁸Атаев А. Огахийнинг “Жомеъ ул воқеъоти султоний” асаридаги “хонадон” ва “дудмон” сўзлари хусусида. // “Тил ва адабиёт таълими” илмий-метод. журнали, 2012, № 5, 11-12-бетлар.

o`quvchilarda bobolardan faxrlanish tuyg`usini tarbiyalash; ta`limiy maqsad- Ogahiy hayoti va ijodi to`g`risida hamda “ilohi har kuning...” g`azali haqida tushuncha berish; rivojlantiruvchi maqsadi-o`spirinlarda buyuk ajdodlarga o`xshashga intilish istagini tarkib toptirish.

Ogahiyning hayoti va ijodini o`rgatishda o`qituvchi darslikdagi ma`lumotlarga suyanadi. Ayni vaqtda ularni o`quvchilarga kengaytirib yetkazish maqsadga muvofiq bo`ladi. Shoirning hayot yo`li qisqacha bayon etilgach, undan bizga qolgan ijodiy merosiga batafsilroq to`xtaniladi. Umuman, faoliyati nuqtayi nazaridan Ogahiy shoir, tarixnavis, tarjimon hamda davlat arbobi ekanligi qayd etiladi. Umrbayoni orqali qanday davlat ishlarini bajarganligi oydinlashgan, shu sababli uning tarixchiligiga ko`proq nazar tashlanadi. Tarjimonligi borasida darslikdagi ma`lumotlar bilan cheklanish mumkin. Chunki mashg`ulot maqsadida adibning tarixchiligi yoki tarjimonligini o`rgatish, tahlil qilish ko`zda tutilmagan. O`quvchida ijodkorning shu qirralari to`g`risida tasavvurning bo`lishi yetarlidir.

Ijodkorning tarjimayi holini o`rganish ham muhim ahamiyatga egadir. Umumta`lim maktablarida badiiy asar yoxud lirik asar o`rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib xulosalar chiqarishga uruniladi. Tahli jarayonida ilmiy xulosalar chiqarmoq uchun yozuvchining pozitsiyasini tushunish kerak bo`ladi, buning uchun esa ijodkorlarning tarjimayi holi bilan tanish bo`lish talab etiladi, shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adib qanday munosabatda bo`lganligidan xabardor bo`lish mumkin. Maktab adabiy ta`limda ijodkorlar umr bayoni 2 sababga ko`ra o`rganiladi: 1) adiblar millat ahlining diqqat e`tiborida turgan kishilar, ularning shaxsiy hayoti va tabiatida o`quvchilar uchun namuna bo`ladigan jihatlar ko`p. Binobarin, yozuvchi hayoti o`quvchilarga ma`naviy namuna maktabi sifatida o`rgatiladi. 2) adiblarning hayot yo`li, sa`jjiyasi asarlarida o`z nuqsini qoldiradi. Binobarin, ijodkorlarning hayot va ijod yo`llari va shaxsiyatlari borasidagi ma`lumotlar ularning asarlarini tushunishga kalit hamdir.

Yozuvchi biografiyasi haqidagi ma`lumot hamma sinflarda ham beriladi. Ammo o`smir yoshidagi o`quvchi bilan o`spirin yoshidagi o`quvchning adiblar tarjimayi holini o`rganish o`ziga xos didaktik jarayonlar tarzida kechadi.

Odatda, 5-8-sinflarda adiblarning biografiyalarini o'rganishga alohida soat ajratilmaydi. Binobarin, yozuvchi haqida uzoq to'xtalish zaruriyati yo'q. Shuning uchun darsliklarda o'quvchilarning o'zlari o'qib olishlari mumkin bo'lgan ma'lumotlar beriladi. Shu sababli 5-8-sinflarning darsliklarida yozuvchilar haqida o'quvchilarga eng umumiy ma'lumotlar berish bilan kifoyalanadi.

9-sinfdan e'tiboran adiblarning tarjimai holini o'rganishga alohida vaqt ajratiladi, ularning hayotidagi muhim hodisalargina emas, balki ijodiy qiyofalarning shakllanish bosqichlari ham tekshiriladi. O'quvchilar shu sinfda adib shaxsi bilan uning asari o'rtasidagi bog'lanishni ilg'aydigan bo'ladi. Adabiyot o'qituvchisi yuqori sinflarda yozuvchining hayot va ijod yo'li haqida va'z o'qishdan oldin o'quvchilar avvalgi sinflarda adiblarning hayot va ijod yo'llari haqida nimalar o'rganganliklarini esga solishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yozuvchining hayoti o'rganilar ekan, uning o'ziga zamondosh, o'zidan oldin o'tgan va keyin paydo bo'lgan ijodkorlarga ta'siriga ham o'rni bilan to'xtalishi joiz.

Shuningdek, ijodkor umrbyonini o'rganishda adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimai hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari, muxlislari tomonidan aytilgan fikrlar yoki yozma holda yetib kelgan manbalardan olish mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan biri shoir va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir. A. Navoiy, Z.M. Bobur, Ogahiy, Furqat singari ko'plab mumtoz adabiyotimiz vakillarining hayoti va ijodini o'rganishda ana shu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi.

Ogahiyning tarjimai holini 9-sinf darsligida o'rganish jarayonida o'qituvchi yuqoridagi materiallar va fikrlarga asoslansa dars jarayoni ham ancha qiziqarli sifatli o'tadi. Jumladan, o'qituvchi dars jarayonida Ogahiy haqida gapirar ekan, uning o'z asarida o'zi haqida aytib o'tilgan ma'lumlardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, Ogahiy "Ta'viz ul-oshiqin" devoning debochasida o'zi haqida quyidagicha keltiradi:

"O'z sarguzashtin bu nav' afsona bila arzga yetkurur va o'z ahvolin bu yanglig' tarona bila maoniy ahlig'a bilgururkim, faqir aban an jad Xorazm

mamlakati sultonlarining davlatxoh umarosi zubdalaridin va o`zbekiya tavoyifidin yuz dudmoni umdalaridin miroblig` mansabi oliysig`a mansub va sadrnishinlik martabayi mutaolasig`a mansubdurman. Shabob ayyomining avoyilidakim, umrim bog`ining navbahori va hayotim navbahorining navshukufta lolazori erdi, fazlu kamol iktisobig`a maylu rag`bat ko`rguzub, madrasanishinlik rasmin ixtiyor qildim va har yerdakim fuzalo va shuaro xaylining majma` va majlisi bo`lsa ,alarning xizmatig`a bormoqni o`zimga vojib va lozim deb bildim”⁴⁹.

O`qituvchi ushbu ma`lumotni ifodali o`qib berib, uni qisqacha o`quvchilarga so`zlab bersa, ijodkor tarjimai holi haqida kengaytirib bayon qilgan bo`ladi. Shuningdek, o`quvchilar uchun ham yangi ma`lumot sifatida qabul qilinadi.

Pedagogik texnologiya shaxsga ta`sir ko`rsatish san`ati ma`nosini anglatar ekan, adabiyotning vazifalaridan biri ham shu. Shu bois ham o`qituvchi-darsning ijodkori. U zinhor tayyor texnologiyalarning oddiy ijrochisiga aylanib qolmasligi, aksincha, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o`z yo`lini izlab topishi lozim.

“Zargarning o`z hunariga ishq,-deydi Jaloliddin Rumiy,-moddaning haqiqiy sifatlarini anglashga, binobarin, unga ishlov berishning usul va vositalarini egallab olishga yetaklaydi. Bu jarayon zargar uchun o`z-o`zini baholash jarayoni hamdir”.

Shunday holatlar bo`ladiki, dars jarayonida ko`plab o`rinli-o`rinsiz usul va metodlar qo`llaniladi. Natijada, asar badiiyati, jozibasi xira tortib qoladi, o`quvchiga ta`sir kuchi kamayadi. Adabiyot darslarida so`z sehriga tayanish lozim, foydalanadigan usullar umumiy maqsadga omuxta bo`lib, singib ketsagina uni qo`llash yaxshi samara berishi mumkin.

Nemis faylasufi, pedagog olim V.O. Disterverg “Noqobil o`qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-qo`yadi, yaxshisi esa uni topishga o`rgatadi”, deb yozadi. Shu jihatdan qaraganda adabiyot darslarida o`qituvchi o`quvchilarga o`z xulosalarini yagona hukm tarzida singdirishi mumkn emas. Balki haqiqatni birgalikda izlab

⁴⁹Ўзбек адабиёти 10-синф. – Т: Ўқитувчи, 1997.299-бет.

topishga, o`quvchilarning o`z qarashlari, fikr-mulohazalari, e`tirozlari bo`lishiga undashi, yetaklashi lozim.

Har bir millatning kelajagi yosh avlodga berilayotgan ta`limning sifati bilan belgilanadi. Bu borada yurtimizda olib borilayotgan ishlar e`tiborga loyiq. “Ta`lim to`g`risida”gi qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilab qo`yilgan mezonlar asosida ta`lim samaradorligiga erishish har bir pedagog oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shunday ekan, umumiy o`rta, o`rta maxsus kasb-hunar hamda oliy ta`lim muassasalarida tahsil berayotgan o`qituvchilar yoshlar dunyoqarashini o`stiradigan ilg`or pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilanganidek, “ta`limning yangi shakl va uslublari, o`quv, shu jumladan, differensiyalashgan dasturlarni amaliyotga joriy etish”i zarur.

Darsda o`tilgan va yangi o`tiladigan mavzunin o`quvchi tez, qulay va oson anglashi uchun o`qituvchi o`quvchilarning yoshi, fiziologik holatini inobatga olgan holda qo`llaniladigan metod(uslub) va usullarni to`g`ri tanlay olishi kerak.

Xorazm viloyati Bog`ot tumanidagi 3-son ayrim fanlar chuquqr o`rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab-internati ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi Sanobar Rajabovanning “Til va adabiyot ta`limi” jurnalining 2013-yil 11-sonidagi “Ogahiyning “Ustina” radifli g`azali tahlili” nomli metodik maqolasini Ogahiy lirikasini o`rganish yuzasidan yana bir tajriba deb baholash mumkin. Maqola muallifi dars tafsilotini quyidagicha yoritadi.

Darsning maqsadi:

1)ta'limiy maqsad:”Ustina” radifli g`azalini o`qish va g`azal matni ustida ishlash (qofiya, radif, she`riy san`atlari, vaznini aniqlash);

2)tarbiyaviy maqsad:o`quvchilarni buyuk ajdodlarga hurmat va adabiyotimizga muhabbat ruhida tarbiyalash;

3) rivojlantiruvchi maqsad:o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik, ijodiy raqobat ko`nikmalarini shakllantirish.

Darsning usuli:juftlikda ishlash, “O`rgan-o`rgat”.

Darsning jihozi: “Ogahiy hayoti solnomasi” kitobi, Ogahiy hayoti va ijodi haqida tayyorlangan slayd, albom, plakat, 2 xil rangdagi 2 ta marker, 32 ta baholash kartochkalari, proyektor.

Darsning borishi:

Dars o`quvchilar foydalanishi mumkin bo`lgan imkoniyatlar haqida tushuntirish bilan boshlanadi (har imkoniyat orqali bir ball olish mumkin):

1-imkoniyat	Testlarga javob berish
2-imkoniyat	Qo`shimcha ma`lumotlar
3-imkoniyat	G`azal vaznini aniqlash
4-imkoniyat	Qofiya, radifni aniqlash
5-imkoniyat	G`azaldan kamida uchta she`riy san`atni aniqlash
O`quvchi to`plagan ball	

Ogahiy hayoti va ijodi yuzasidan tuzilgan testlar asosida uyga vazifa tekshiriladi.

- Ogahiyning ustoz nomi to`g`ri berilgan javob?
 - A) Feruz
 - B) Munis
 - C) Bayoniy
 - D) Komil Xorazmiy
- Ogahiy devoni nomini toping?
 - A) “Munis ul-ushshoq”
 - B) “Taviz ul-oshiqin”
 - C) “Badoe ul-bidoya”
 - D) “Firdavs ul-iqbol”
- “Ikki tomonlama teng” ma`nosini anglatuvchi janr?
 - A) Muashshar
 - B) Mustazod
 - C) Musamman

D) Musoviyattarafayn

4. Ogahiyning qaysi asarida dunyo omonot binoga, bo`yi, vafosi yo`q gulshanga, jafokor tuban ayyoraga o`xshatiladi va insonni unga ko`ngil berib, aldanib qolmaslikka chaqiradi?

A) “Dahr uyi bunyodikim...” tarji`bandi

B) “Qasidai nasihat”

C) “Taviz ul-oshiqin”

D) “Firdavs ul-iqbol”

5. Ogahiy quyidagi qaysi kichik she`riy janrlarda ham beazir bo`lgan?

1) ruboiy 2) tuyuq 3) ta`rix 4) fard 5) qit`a 6) muammo

A) 1,2,3,4,5

B) 1,2,3,4

C) 2,4,6

D) 1,2,3,4,5,6

Testlar tarqatilib, uni yechishga 2,5 daqiqa vaqt beriladi. Vaqt tugagach, daftarlar partadoshlar orasida almashtiriladi va javoblar tekshirilib, maksimal 5 ball olgan o`quvchilarning baholash kartochkasiga 1-imkoniyatdan olingan 1 ball yozib qo`yiladi. “O`rgan-o`rgat” tadbirida ishtirok etayotgan o`quvchilar faoliyati va mavzuga oid uyga vazifa qilibv topshirilgan qo`shimcha ma`lumotlar tekshiriladi. Saralanib, eng yaxshi deb topilgan ma`lumot egalarining baholash kartochkasiga 2-imkoniyatni olganliklari qayd etiladi.

Yangi mavzu bayoni: “Ustina” g`azali asosida mashhur hofizlardan biri kuylagan qo`shiq eshittiriladi.

G`azal matnini o`qituvchi tomonidano`quvchilar ishtirokida baytma-bayt izohlanadi.

O`qituvchi: G`azalning mashhurligi, muxlislarning qiziqishi va hayratiga sabab, uning yuksak badiiy mahorat bilan yozilganidir. 1-baytda ma`shuqaningqoshi va ko`zi vasf etilgan. “Mushkin qosh”, “jallod ko`z” atrofida hay`at a`zolaridek saf tortgan. Bu an`anaviy tasvir, biroq Ogahiyning ijodiy kashfiyoti shundaki, qosh va ko`z oshiq qatli uchun hukm chiqaradi. Qosh “nun”,

ko`z esa “sod” harfiga taqqoslanishi ham an`anaviy , ular ittifoqini ifodalash uchun (“nun” eltibon “sod” ustina) ostin-ustin joylashtiriladi va bu hamjihatlikdan “nas” qatl uchun chiqarilgan hukm bayon etilgan xatni bildiradi. Demak, qoshlar hay`ati jallod ko`zga oshiqni qatl etish to`g`risida shafqatsiz farmon-fatvo beradi. Baytdagi ushbu badiiy manzara hayotiyli, tabiiyli, ishonarliligi bilan ta`sirchan va go`zaldir.

2-baytdan “Agar shamshodning ustiga gul payvand bo`lganini ko`rmagan bo`lsang, bu mo`jizani tabiatdan izlab o`tirmay yorning zebo qomatiga yarashiq gulgun yuzini tomosha qil”,- degan xulosa chiqadi.

Keyingi 4 bayt to`liq mubolag`a san`ati bilan sug`orilgan bo`lib, misrama-misra oliy darajaga ko`tariladi. Lirik qahramon chekkan g`am yuklari shu qadar og`irki, agar falak Farhodning ustiga yana ming Besutun (farhod qazigan afsonaviy tog`) yog`dirsa ham, oshiq chekayotgan g`am yukining mingdan biricha bo`lmaydi

7-8-baytlarda shoir lirik chekinish qiladi. Ogahiy davr hukmdoriga murojaat qiladi. Oftob o`z nurini vayrona va obod yerlarga teng sochishini misol qilib, shohni adolatga chorlaydi va mehr-muruvvat ko`rsatganda yomon-u yaxshiga teng munosabatda bo`lishga undaydi. Sulaymonshohdek taxtini shamol ustiga qo`ndirib, bu olamdan yeldek sayr etib o`tsa ham oxir-oqibatda tanasi tuproqqa aylanishi va yelga sovurilishidan ogohlantiradi.

G`azal shoir ahvoli, ruhiyati izhori bilan tugaydi. G`azalning yuz lashkari hjum qilib turganida, “zor-u noshod” shoir g`azalxonlikni davom ettirishga jur`at topolmay, so`zni muxtasar qilib qo`ya qolganligini bayon qiladi.

G`azalni matni ustida ishlash uchun jadvaldan foydalaniladi.

1.	Asar janri	“Ustina” g`azali
2.	Qofiyadosh so`zlar	Jallod, “sod”, shamshod, odamizod, bedod, faryod, Farhod, obod, bod, noshod
3.	Qofiyalanish tartibi	a-a, b-a, v-a va hokazo
4.	Radifi (agar bo`lsa)	“ustina” so`zi
5.	Vazni	Rajazi musammani solim
6.	Qo`llangan she`riy san`atlar	Kitobot (harf san`ati), tashxis, mubolag`a,

	talmeh, tamsil, tashbeh kabi
--	------------------------------

Gʻazal vaznini aniqlashda oʻqituvchi oʻquvchilarga yordam beradi.

Mush-kin qo-shi- /ning hayʻ-a-ti/

- - v - - - v -

ul chash-mi jal-/lo-d us-ti-na,

- - v - - - v -

Qat-lim u-chun/ «nas» kel-ti-rur/

- - v - - - v -

«nu-n» el-ti-bon/ «so-d» us-ti-na.

- - v - - - v -

Gʻazal afoylini chizagnimizda - - v – mustafʻilun ruknida ekanligi aniqlanadi. Maʼlimki, bu rukn takroridan **rajaz** bahri yasaladi. Rukn misrada toʻrt, baytda sakkiz marta takrorlanganligi uchun musamman (sakkizlik) va toʻliq, yaʼni zihofga uchramaganligi uchun solim ekanligitushuntiriladi. Sherʻiy sanʼtlar izohlanadi. Oʻquvchilar ishtirokiga qarab, baholash jadvaliga imkoniyatlar belgilab boriladi.

Soʻng shoir hayoti va ijodi keng yoritilgan slayd namoyish etiladi. Oʻquvchilar fikri soʻraladi.

Oʻqituvchi oʻquvchini baholash kartochkasi asosida berilgan imkoniyatlardan toʻplagan ballariga qarab baholaydi.

Uyga vazifa: “Ustina” gʻaalini yodlash, “Ogahiy-shoir, tarixchi, tarjimon” mavzusida kecha tashkil qilish uchun tayyorgarlik koʻrish.

Adabiyot darslarida sheʼriy asarlarni oʻrganishda izohli oʻqish lirik asar tahlilining samarali usuli sifatida alohida ahamiyat ksb etadi. Sheʼriy asarni oʻqish va tahlil qilish jarayonida oʻquvchilarning mustaqil fikrlashiga alohida eʼtibor beriladi. Oʻrta bahoga oʻqiydigan oʻquvchiga ham oʻylash va savolga ongli ravishda javob berish, matndan tegishli oʻrinlarni topish uchun vaqt ajratilsa, u asta-sekin faollasha boshlaydi. Mustaqil fikr sheʼrni estetik baholashdagi mustaqillikka ham yoʻlochadi. Natijada, oʻquvchilarning sheʼrni badiiy idrok

etishini chetdan kuzatish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash, o'z vaqtida tegishli maslahatlar bilan yordam qo'lini cho'zish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Adabiy ta'lim jarayonida she'riy asarlar tahlilida estetik jihatlarga e'tibor qaratish orqali o'quvchilar she'riyatga oshno bo'ladilar.

Ma'lumki, Ogahiyning hayoti va ijodi umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litsey hamda oliy o'quv yurtlarida atroflicha o'rganilmoqda. Ogahiy hayoti va ijodini o'rganish jarayonida shoirning hayot yo'liga doir ma'lumotlarni "Klaster" usulida quyidagicha bayon qilish mumkin:

- ❖ Muhammad Rizo Ogahiy 1809-yili 17-dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi;

- ❖ Dastlabki boshlang'ich ma'lumotni o'zi tug'ilgan qishlog'idagi maktabda olgan;

- ❖ Yoshligida otasi vafot etgach, uning tarbiyasi bilan amakisi Munis shug'ullangan;

- ❖ U maktab, keyinchalik madrasa tahsili davomida arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o'rganadi;

- ❖ 1829-yilda Munis vafot etgach, hukmdor Olloqulixon uning o'rniga Ogahiyning mirob etib tayinlaydi;

- ❖ 1839-yilda Ogahiy Munis boshlab qo'ygan "Firdavs ul-iqbol" ("Iqbol bog'i") asarini davom ettirib, Xiva xonligining 1825-yilgacha bo'lgan tarixini yozib tugatdi;

- ❖ 1844-yilda "Riyoz ud-davla" asarini tamomladi;

- ❖ 1845-yildan Ogahiy hayotidagi og'ir va musibatli davr boshlandi;

- ❖ 1845-yilda Ogahiy miroblik ishlari bilan safarda yurganda, tasodif tufayli oyog'i qattiq shikastlanadi va yigitlik yoshidayo to'shakka bog'lanib qoladi;

- ❖ 1857-yilda Ogahiy miroblikdan iste'foga chiqishga majbur bo'ladi;

- ❖ 1846-yilda shoir "Zubdat ut-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i") asarini yozib tugatadi;

❖ 1847-1855-yillarda Ogahiy “Jome ul-voqeoti sultoni” (“Sultonlik voqealarining yig`indisi”) tarixiy asarini yozadi;

❖ Ogahiy tarjimalar bilan shug`ullanib, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”, Sa`diy Sheroziyning “Guliston”, Badriddin Hiloliyning “Shoh va gado”, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” va boshqa qator asarlarni o`zbek tilig o`giran;

❖ XIX asrning 60-yillarida “Gulshani davlat” va “Shohidi iqbol” (“Baxt shohidi”) tarixiy asarlarini yozdi.

❖ Ogahiyning asosiy she`riy merosi ona tilida yozilgan bo`lib, ular “Ta`viz ul-oshiqin” devonida to`plangan;

❖ “Ta`viz ul-oshiqin” (“Oshiqlar tumori”) devoni ma`rifatparvar shoh va shoir Feruz-Muhammad Rahimxon Soniy (ikkinchi)ning taklifi va talabi bilan tuzilgan;

❖ “Ta`viz ul-oshiqin”da shoirning yigirmadan ortiq janrdagi salkam yigirma ming misrali lirik merosi jamlangan;

❖ Devondagi 1300 misradan ortiq she`r fors tilida bitilgan bo`lib, bu Ogahiyning zullisonaynlik an`anasini munosib davom ettirganligining yorqin dalilidir;

❖ Devondan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri va ishqiy mavzudagi she`rlar o`rin olgan;

❖ Tabiat tasviriga bag`ishlangan g`azallarida tashbih, tashxis, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarini qo`llaydi;

❖ Ogahiyning “Ustina”, “Aylansun”, “Gado” radifli g`azallarida ishqiy mavzu yetakchilik qiladi;

❖ Shoirning “Dahr uyi bunyodikim, suv uzradur, mahkam emas” tarji`bandi tasavvufiy mazmunga yo`g`rilgan ijtimoiy-falsafiy ruhdagi asardir;

❖ “Qasidai nasihat” esa Ogahiyning siyosat va davlatga munosabati, hukmdor fazilatlar va burch-vazifalari borasidagi mulohazalari bayon etilgan pandnomadir;

❖ Ogahiyning kichik sheʼriy janrlar: ruboiy, tuyuq, taʼrix, fard kabi shakllarda ham barakali ijod qilgan;

❖ Shoirning “Ul shoʻxki ochildi xat-u ruxsori” gʻazali musoviyattarafayn shaklida yozilgan;

❖ Ogahiy oʻzining salaflari Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy hamda Munis kabi mumtoz adabiyotimiz yorqin siymolari anʼanalarini davom ettirdi;

❖ Muhammad Rizo Ogahiy 1874-yilda vafot etgan.

“Klaster”ni tuzishda iloji boricha barcha oʻquvchilar jalb etilsa, ishtirokchilarning faolligi oshadi. Bu usulni maktab oʻquvchilari bilan oʻtkazish maqsadga muvofiq. “Klaster” da maʼlumotlar tartib bilan tuzilsa, undagi ketma-ketlik oʻquvchilar xotirasida tez va oson muhrlanadi.

Bundan tashqari shoir sheʼrlari asosida bahr-u bayt oʻtkazish ham maqsadga muvofiq. Bahr-u bayt oʻquvchi yoshlarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi. Akademik litey darsligida Ogahiy lirikasidan namunalar koʻp berilgan. Shuning uchun ham bahr-u baytni litsey oʻquvchilariga dars oʻtish jarayonida oʻtkasa yaxshi samara beradi. Chunki oʻquvchilar ushbu gʻazallarni yodlash bilan birga ular bilan yaqindan tanishib ham chiqadi. Bahr-u bayt quyidagicha boʻlishi mumkin:

Mushkin qoshining hayʼatiul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun «nas» kelturur «nun» eltibon «sod» ustina.

* * *

Agar koʻrsa erdi Yusuf malohatligʻ jamolingni,
Der erdi sidq ila “Ruhsori toboninggʻa sallamno”.

* * *

Oh-u yoshingga, Ogahiy, rahm etti ul xoʻblar shahi,
Taʼsiri oh-u yoshinga olam gado, man ham gado.

* * *

Oshiqlarin sayd etkali yuz ishva aylab sho`xlar,
Kipriklarining har biri bir novaki dildo`z erur.

* * *

Ruhim o`lub toza, xasta jismima rohat yetar,
Aylabon dashnomlar ursang agar ko`ksumga tosh.

* * *

Shahr ila sahroni purfayz ayladi firdavdek,
Qilg`oli mahzun ko`ngullarni farah gustar bahor.

Ogahiy ijodini o`rganishni muloqot-trening usulida tashkil etish ham yaxshi samara beradi. Mazkur mashg`ulot o`quvchilarda mustaqil fikrlash, o`z fikrini erkin bayon etish malakasini shakllantiradi, munozara qilish, bahslashish madaniyatini tarkib toptiradi. Muloqot mavzusi, bahs-munozara o`tkazish tartibi, ularga qo`yiladigan talablar o`quvchilarga tanishtiriladi. Bu susuldagi mkashg`ulotni kichik guruhlariga bo`lingan holda quyidagicha o`tkazish mumkin:

✓ Ogahiyning hayot yo`li. Bu guruh shoirning dunyoga kelishi, oilasi, ta`lim olish jarayoni, uning tarbiyasida amakisi Munisning o`rni, shuningdek, miroblik faoliyati, hayotidagi og`ir kunlar va xastalanib qo`lilish sabablari haqida fikr yuritadilar.

✓ Ogahiy tarixshunos. Bu guruh uning tarixiy asarlari, ularning yaratilish sabablari, Xiva tarixi bilan bog`liq ma`lumotlar va ularning ahamiyati haqida so`z yuritadi. Shuningdek, “Firdavs ul-iqbol”, “Riyozi ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome ul-voqeoti sultoniyy” asarlari haqida ham qisqacha aytib o`tiladi.

✓ Ogahiy tarjimon. Bu guruh a`zolari Ogahiyning tarjimonlik faoliyati, mohir tarjimon sifatida amalga oshirgan tarjima namunalari haqida bahslashadilar. Jumladan, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”, Sa`diy Sheroziyning “Guliston”, Badriddin Hiloliyning “Shoh va gado”,

Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” tarjimalari haqida fikrlarini bayon etishlari mumkin bo`ladi.

✓ Ogahiy lirikasi. Bu guruh ishtirokchilari shoirning lirik merosi haqida fikr yuritadi. Bunda shoirning g`azal, tuyuq, qasida va tarji`bandlari kabi janrlarda samarali ijod qilgani diqqat markazida bo`lmog`i talab etiladi. Maktab va litseyda o`rganiladigan “Ustina”, “Navro`z”, “Aylansun” radifli g`azallari hamda tarji`band va qasidasi tahlil qilinadi.

Guruh o`quvchilari mavzular bo`yicha o`z fikrlari, misollarini to`plab, yozib boradi. Darsda to`plangan ma`lumotlar taqdim etiladi. Bahs-munozaralar davomida o`quvchilar mavzuni qay darajada o`zlashtirgani aniqlanadi.

Ogahiyning g`azallarini o`rganish jarayonida “Mozaika” usulidan ham foydalanish mumkin. Bu usul kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Ya`ni o`qituvchi tomonidan o`quvchilar kichik guruhlariga bo`linadi va har bir huruhga Ogahiyning eng mashhur (o`quvchilarga yod olish uchun uyga vazifa qilib yuborilgan) g`azal matni olinadi. Ushbu g`azal matnining har bir bayti aralashtirilib guruhlariga tarqatiladi. Guruhlar aralashib ketgan g`azal baytlarini asl matn ko`rinishiga keltirishi va ushbu g`azal matnini ifodali tarzda yoddan aytib berishlari lozim. Shuningdek g`azal baytlarini guruh a`zolari navbati bilan sharhlab bera olishlari darkor. Mazkur vazifani qaysi guruh birinchi bajarib bo`lsa, ushbu guruh rag`batlantiriladi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablari va akademik litsey darsliklariga e`tibor qaratadigan bo`lsak, Ogahiy ijodidan namunalar sifatida ko`proq g`azallar keltirilganligining guvohi bo`lamiz. Maktab va litsey o`quvchilari aynan mumtoz lirika namunalari, jumladan, g`azal yod olish, uni tahlil qilish va ifodali o`qish borasida biroz qiynaladi. Mana shu qiyinchiliklarni yengillashtirish uchun o`qituvchi o`quvchilarga g`azal janri xususiyatlari, uni yod olishning usullari haqida ham nazariy va amaliy yordam bersa ko`zlangan natijaga erishish mumkin.

G`azal janrini tushunishi va yod olishi uchun o`quvchidan quyidagilar talab etiladi:

✓ g`azal janrining qanday janr ekanligini bilishi;

- ✓ lug'atlar bilan ishlay olishi;
- ✓ aruz vaznini tushunishi;
- ✓ Vazn haqida ma'lumot;
- ✓ Misra, bayt, hijo, rukn, matla', maqta, qofiya, radif tushunchalari;
- ✓ Bahr, vazn, taqte'lar haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- ✓ G'azalni ifodali o'qish qonun-qoidalarini bilishi;
- ✓ Qanday badiiy san'atlar borligini bilishi.

O'quvchilarda g'azalni ifodali o'qishga qiziqishini oshirish kerak. Uning jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini (o'sha davr va hozirgi kun uchun), ahamiyatini to'g'ri tushuntirib bera olish lozim. G'azal tahlili davomida turli qiziqarli didaktik voqealar so'zlanishi shart. Bu g'azalning o'quvchi xotirasida ancha muddat saqlanib qolinishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar bunday ma'lumotlarga "Aruzshunoslik" to'garaklarida ega bo'ladi. "Aruzshunoslik" to'garagi maktab, kollej va litseylarda qiziquvchilar uchun tashkil qilinishi kerak. Maktablarda 8-9-sinf o'quvchilari, kollej va litseylarda barcha kurs talabalari qatnashishlari mumkin.

Dars davomida turli metod, usul va texnikalardan foydalanish lozim. Jumladan, "G'azal o'qish texnikasi" degan usuldan ham foydalansa bo'ladi. Bu texnikada g'azallar qisqa va o'quvchiga tushunarli qilib tahlil qilinadi.

Tahlil quyidagicha amalga oshiriladi:

- g'azal matni ifodali qilib o'qiladi;
- har bir bayt ketma-ket tahlil qilinadi. Baytda uchraydigan notanish so'zlar baytni tahlil qilish barobarida aytib boriladi. G'azalda aks ettirilgan his-tuyg'ular, voqealar o'quvchi xotirasida jonlantirilib boriladi;
- shoir qanday fikrni olg'a surmoqchi bo'lganligi o'quvchilardan so'raladi;
- g'azalni o'quvchilar oson yod olishlari uchun uning vazniva taqte'lari aniqlanadi.

G'azallarni mana shu tartibda o'rganishda "Deklamatsiya" usulidan foydalanish mumkin.

“Deklamatsiya” soʻzi lotincha badiiy asarni chiroyli taʼsirchan qilib yoddan oʻqish sanʼati degan maʼnoni bildiradi. Mumtoz sheʼriy janrlardan biri gʻazal janrini butun sehri bilan ifodali qilib oʻqishda bu usul samarali natija beradi. Sheʼriy asarlarni ifodali oʻqish uning oʻziga xos xususiyatlari, asarning janri, ritmi, qofiyalanish tartibi va band qurilishiga bogʻliq. Aruz vaznida hijo, rukn, bahr, taqteʼlarni toʻgʻri tushunish va matnda tahlil qila olish ifodali oʻqishning samarali omili hisoblanadi.

Deklamatsiyaga quyidagi 3 bosqichni amalga oshirish orqali erishish mumkin:

✓ Tahlil. Gʻazalda hijo(qisqa (V), choʻziq (-), oʻta choʻziq (misra oxirida “~”, qolgan oʻrinlarda vazn talabi bilan hijolar (“-V” yoki “V-“), rukn (hijolarning maʼlim tartibda guruhlanishi), bahr (ruknlarning takroridan hosil boʻladi), paradigma (chizmasi),vazni aniqlanadi.

✓ Jarayon. Bu bosqichda tahlilning toʻgʻri yoki notoʻgʻriligi koʻrib chiqiladi. Gʻazal matnidagi his-tiygʻular, voqealar oʻquvchi xotirasida jonlantirilib, ifodali oʻqish uchun tayyorgarlik koʻriladi.

✓ Ifodali oʻqish. Bu bosqichda oʻquvchini sheva taʼsiridan qutqarib, adabiy tilda oʻqishga tayyorlash kerak. Sheva taʼsirida “ifodali” oʻqish asar mazmuniga putur yetkazadi, uning badiiy-estetik taʼsirchanligini susaytiradi.

✓ Soʻng gʻazal yod olinadi.

Darsda yangi pedagogik texnologiyalarni oʻz oʻrnida mahorat bilan qoʻllash oquv mashgʻuloti maqsadiga erishishni kafolatlaydi.Taʼkidlash joizki, ayrim hollarda bir sharoitda ijobiy natija bergan texnologiya boshqa bir sharoitda kutilgan samarani bermasligi ham mumkin.

Zero, muallim, qanday pedagogik texnologiyani qoʻllamasin, bunda oʻquvchilar bilan oʻrnatiladigan munosabatning toʻgʻri yoʻnaltirilgani katta ahamiyatga ega boʻladi. Chunki hech qanday texnologiya jonli, hissiyotlarga toʻla insoniy munosabatlarning oʻrnini bosa olmaydi.

Ayniqsa, adabiyot darslarida bu jarayon o'zgacha ma'no kasb etadi. Adabiyot boshqa fanlardan farqli ravishda inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, tafakkuri, ma'naviy dunyosini boyituvchi muhim vositalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Xulosa

Istiqlol har bir sohaga yangicha fikrlashni, yuksalishni, taraqqiy etishni hayotiy zaruratga aylantirdi. Bu narsa ta'lim jarayonida ham ijobiy o'zgarishlar, islohotlar, yuksalishlar bo'lishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida ta'limni taraqqiy ettirish to'g'risida shunday xitoblar yangraydi: "Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti boyliklari bilan, balki, birinchi navbatda, o'zining yuksak ma'naviyati bilan kuchlidir...", "...Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz...", "Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos bo'lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatolmaymiz, axir...", "...Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi...".

Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimida borayotgan tub islohotlar jarayonining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-nazariy, iqtisodiy hamda tashkiliy asosi bo'lmish "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" (1997-yil 29-avgust), "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" (1997-yil 29-avgust), Respublika Prezidentining farmonlari va hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar, o'quv predmetlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari hamda boshqa o'quv-metodik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etib, ta'limni sifat jihatdan yangilashni talab qilmoqda.

Bu narsa adabiy ta'lim jarayonini ham mazmunan boyitish, yuksaltirishni hayotiy zaruratga aylantirdi. Adabiyotni o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan keskin farq qiladi. Aniq fanlarni o'qitishda o'qituvchi o'quvchilariga insoniyat tomonidan kashf etilgan tayyor bilimlarni o'rgatadi. Bunda o'quvchilar ham ortiqcha zo'riqlashsiz, qiynalashsiz tayyor bilimlarni o'zlashtiradilar. Yana bir jihati, bunday fanlarni o'qitish jarayonida o'quvchilar barchasi yagona yechimga, xulosaga keladilar va bu ilmiy yagona haqiqat hisoblanadi.

Adabiy ta'lim har bir o'quvchidan o'zgacha badiiy idrokni, asarni his etishni, kashf qilishni va yagona xulosaga emas, turfa yechimlarga, xulosalarga kelishi tabiiy hol sifatida baholaydi, to'g'ri deb biladi. O'quvchilar bitta asarni o'qib

o‘raganishsa-da, undan turlicha hissiy ta’sirga, quvvatga ega bo‘ladilar, rango-rang xulosalar yasaydilar.

O‘quvchilarning badiiy tafakkurini o‘stirishda lirik, epik va dramatik turdagi asarlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, lirik janrining imkoniyatlarini to‘liq ochib berilishida; so‘z sehri, qudratini teran his qilinishida; fikrni ifodalashning sodda, siqiq shakllarini o‘rganib, mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirilishida; o‘quvchining estetik zavqini oshirish, olam haqidagi, odam haqidagi bilimlarini boyitishda, shubhasiz, Ogahiy asarlarining ham alohida o‘rni, mavqeyi bor.

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, talantli shoir va tarjimon, Muhammad Rizo Ogahiyning hayot yo‘li va ijodiy faoliyatini darsliklar asosida o‘rganishga, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yanada boyitish masalasi atrofida imkon qadar fikr-mulohazalar yuritdik. Ishimizni tayyorlash jarayonida shu narsaga amin bo‘ldikki, Ogahiy badiiy ijodga juda katta mas’uliyat bilan yondashib, mumkin qadar ko‘p va yaxshi asarlar yaratishga e’tibor qaratgan.

Adabiy ta’lim amaliyotida Ogahiy asarlarini, g‘azal, tuyuq, tajri‘band, qasida va ruboiylarini o‘rganish yuzasidan juda boy ilmiy tajriba to‘plangan, ommalashtirilgan. Ogahiy asarlari o‘zbek adabiy ta’lim jarayonida uzoq yillardan beri turli tomondan o‘rganilmoqda. Jumladan, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida Ogahiy hayoti va ijodiga oid turkum maqolalarning berib borilishi, “Til va adabiyot ta’limi” metodik jurnalida ham adib ijodini o‘rganishning samarali usullari haqida fikr va mulohazalar chop etib kelinmoqda. Mazkur jurnallardagi maqolalarni o‘rganish jarayonida ularda Ogahiy shaxsiyati, hayot yo‘li, ijodi, lirikasi, uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, kichik janrlari tadqiqi, tarixiy asarlari, ularning nashrlari, lirikasida uchraydigan she’riy san’atlar, shu bilan birga, ijodiy merosini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilganligining guvohi bo‘ldik. Ammo Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganish yuzasidan tavsiya etilgan metod yoki usullarning salmoq jihatdan kam ekanligi diqqatimizni tortdi. “Til va adabiyot ta’limi” jurnalini o‘rganish jarayonida buning guvohi bo‘ldik. Ogahiy hayoti

vaijodini maktab va litsey darsliklari asosida o'rganish yuzasidan qilinayotgan metodik qo'llanmalar juda kam deb baholadik.

Shunday bo'lsa-da, aytish mumkinki, Abdulla Qahhor asarlarini o'rganishda hali yechimini kutayotgan bir qancha muammolar yo'q emas. Jumladan:

1. Adib asarlari matni ustida ishlashning istiqbolli ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish.

2. Ogahiy g'azallari misolidag'azal janri tadqiqini yangi pog'onaga yuksaltirish.

3. Ogahiy asarlari orqali o'quvchilarning fikrlash quvvatini oshirish, so'zdan foydalanish uquvini shakllantirish, mustahkamlash, badiiy tafakkurini o'stirish.

4. Ogahiy hayoti va ijodini, asarlarini o'rganishning innovatsion metod va usullari tizimini ishlab chiqish.

5. Ogahiy ijodini o'rganish yuzasidan yangilangan uslubiy qo'llanmalar yaratish.

Ogahiy ijodini o'rganishga yangicha yondashuv maqsadi yo'lida olib borgan kichik tadqiqotimizni, sa'y-harakatimizni ummondan tomchi sifatida baholash mumkin. Tadqiqot, avvalo, bizda o'zimizga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamladi; Ogahiy ijodini chuqurroq tahlillash imkonini yaratdi; adabiy ta'lim jarayoni haqidagi bilimlarimizni boyitdi; Respublikamizda faoliyat olib borayotgan ilg'or pedagoglarimizning ish tajribalaridan bahramand etdi; o'quvchilar jamoasi bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qildik; maktab hayotiga, ta'lim berish jarayoniga kirib bordik; yelkamizga og'ir va sharaflı kasbiy mas'uliyat yuklanayotganini teranroq his qila boshladik; o'zimizda ijodkorlik, tadqiqotchilik, ilmga, izlanishga chuqurroq mayl, istak – maqsad tuydik; kelajak pedagogik faoliyatimizda oddiy, bir maromda tebranuvchi o'qituvchi bo'lib emas, aksincha, tinimsiz izlanadigan, olg'a intiladigan, ilmga boy, metodik tajribaga hisobsiz o'qituvchi bo'lish maqsadi qat'iy qaror topdi; eng muhimi, bizlarga nazariy, amaliy saboq bergan ustozlarimizning mehnatlari zoye ketmaganini o'zimiz misolimizda idrok etdik; dillarimizni g'urur, shunday yurtda yashash baxtidan shukronalik, o'qituvchi degan sharaflı, muqaddas nomga hamisha

munosib bo'lish kabi pokiza tilaklar, ezgu maqsadlar egalladi. O'ylaymizki, Ogahiy haytoti va ijodi o'zbek adabiy ta'lim jarayonida bundan keyin ham ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqurroq o'rganilib, shoir ijodining yangi-yangi qirralari kashf etilib, keng o'qituvchilar jamosiga amaliy foydalanish uchun tavsiya etiladi.